

**ISBN: 978-93-90772-43-2**

# **SOCIAL PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PROVIDING LIFE SAFETY OF STUDENTS IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION**



**KOBILOVA SHAXNOZA XUDAYSHUKUROVNA**



Published by  
**Novateur Publication**  
466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**KOBILOVA SHAXNOZA XUDAYSHUKUROVNA**

**INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA O'QUVCHILAR HAYOT  
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK OMILLARI**

**India – 2022**

UDK

KBK

**Kobilova Sh.X.** Inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilar hayot xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy pedagogik va psixologik omillari.....- Chirchiq, 2022.  
-91

**Ma'sul muharrir:**

**Qodirova F.U.** - Pedagogika fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**

**Shokirova Sh.D.** Nizomiy nomidagi TDPU p.f.f.d (Phd) dotsent

**Achilova S.D.** Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.f.d (PhD), v.b. dotsent

Ushbu monografiyada inklyuziv umumta'lim maktablarida tahsil oluvchi imkoniyati cheklangan o'quvchilarni hayot xavfsizligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirishning nazariy asoslarini yaratish, imkoniyati cheklangan o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar, maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlari, hamda manfaatdor va mas'ul tashkilotlarni maqsadli ishlashi, samarali hamkorligi pedagogik klaster muhitini shakllanishi, imkoniyati cheklangan o'quvchilarini xavfsiz hayot faoliyatiga tayyorlash samaradorligini oshirishga ko'maklashuvchi uzlusiz hayotiy, ilmiy, innovation loyihani shakllantirish, xavfsiz hayot faoliyatiga yo'naltirilgan dunyoqarash, pedagogik, axloqiy, psixologik, huquqiy, texnikaviy va jismoniy tayyorgarlik masalalari kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan va yoritilgan.

Monografiya pedagogika oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, xalq ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va tarbiyachilar, hamda imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar uchun mo'ljallangan.

## MUNDARIJA

<b>BET</b>	
<b>KIRISH.....</b>	<b>4-6</b>
<b>I.BOB. INKLYUZIV TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA O'QUVCHILAR HAYOT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI .....</b>	<b>7-40</b>
1.1. Inklyuziv ta'lism klasteri muhitini yaratishning ijtimoiy-pedagogik aspektlari.....	<b>7-18</b>
1.2. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar hayot xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslarini psixologik omillari.....	<b>18-30</b>
1.3. Inklyuziv ta'lism klasteri muhitini yaratishda xorij tajribalari.....	<b>30-40</b>
<b>Birinchi bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>41</b>
<b>II.BOB. IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR HAYOT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....</b>	<b>42-74</b>
2.1. PTIK doirasida inklyuziv kasbiy tayyorgarlik darajani tashkil etish va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash modeli.....	<b>42-52</b>
2.2. Inklyuziv ta'lism muhitida o'quvchilarni xavfsiz hayotga undash motivini rivojlantirish.....	<b>52-63</b>
2.3. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning hayot faoliyati xavfsizligi kompetensiyasini amaliyatga yo'naltirilgan faoliyatda shakllantirish metodikasi .....	<b>63-74</b>
<b>Ikkinci bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>74</b>
<b>UMUMIY XULOSA.....</b>	<b>75-76</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>77-87</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>88-91</b>

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonuni ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari sifatida ta’limning ustuvorligi, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, uzlusizligi va izchilligi, insonparvarlik va demokratik xususiyati, inson hayoti va salomatligi, shaxsning erkin rivojlanish ustuvorligi belgilanib, inklyuziv ta’limni joriy etilganligi[1].

Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo‘lsak inklyuziv ta’lim oluvchilarning hayot xavfsizligini ta’minlash, dolzarb masala bo‘lib, ular sog‘lom bolalar bilan bir xil darajada ta’lim olish qobiliyatiga ega bo‘lishi mumkin, biroq aqliy va jismoniy jihatdan ulardan farq qiladi.

Shuning uchun maxsus talab va tartib hamda pedagogik-psixologik jihatdan ta’lim klasteri vositasida imkoniyati cheklangan o‘quvchilar hayot xavfsizligini ta’minlashni pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini yaratishning amaliy masalalari ilmiy tadqiq etilishi hayotiy zarurat va jamiyat ehtiyoji uchun dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ta’lim klasteri vositasida imkoniyati cheklangan o‘quvchilar hayot xavfsizligini ta’minlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini o‘rganish, uning mexanizmlarini tahlil qilish va jahon andozalariga mos nazariy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida hayot xavfsizligi asoslarining tuzilishi va uni ta’lim mazmuniga singdirish omillarini aniqlash va inklyuziv ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan o‘quvchilar hayot xavfsizligini ta’minlash mexanizmini ishlab chiqishda xorij tajribasini tadqiq etish, hamda inklyuziv ta’lim samaradorligining asosiy mezoni PTIK doirasida amalga oshirilishi, alohida ta’limga muhtoj bolalarni sotsializasiya jarayoni va madaniy ongini oshirish, ijtimoiy tajribasini rivojlantirish muhim masalalardan biri bo‘lib ilmiy izlanishlarni taqozo etadi.

Bugungi kunda inklyuziv ta’limga oid ilmiy - nazariy qarshlarni tahlil etish va integrasiyalashuvini muvofiqlashtirish, inklyuziv ta’lim makonini xavfsizligini

tashkil etish va barqarorlashtirishda o‘qituvchi kasbiga qo‘yilga talablar, inklyuziv ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan o‘quvchilar hayot xavfsizligini ta’minalashning pedagogik-psixologik omillari va inklyuziv ta’lim klaster modeli tuzilishini aniqlash, hamda loyhalash davr talabidir.

Mavzuga doir xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan. Xorijlik olimlar S.V.Danilov, O.E.Yavorskiy, T.V.Timoxina, A.L.Salayevalar tomonidan ta’lim muassasalarida pedagogik klasterni modellashtirish va innovation logistikasi yuzasidan tadqiqot ishlarni olib borgan bo‘lsa, A.V.Antonova, T.N.Byerezina, I.A.Vinogradova P.A.Kislyakov, V.V.Kovrov, D.V.Levchenko va boshqalar ta’limda psixologik xavfsiz muhitni yaratish va saqlash muammolariga e’tibor qaratgan. D.Z.Axmetova, A.S.Ekushevskaya, L.A.Kazakova, Yu.V.Melnik, A.A.Nestyerova, G.I. Romanova va boshqalar inklyuziv ta’limni nazariy va metodologik masalalarini yoritgan.

Babanskaya I.V., Balanova T.A., Shistyerova T.A., Bitova A.L., Fadina A.K., Garagozova A.E. va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida Rossiya va boshqa chet el mamlakatlarida inklyuziv ta’limni amalga oshirishning mintaqaviy tajribalari tadqiq etilgan bo‘lsa, Azarova S.V, Anoxina E.A., Bukovskaya E.V., Volkova S.A., Paleskaya A.N., Polyanskaya E.S., Gorinenko E.N., Nekrilova M.I. va boshqalarning ilmiy qarashlarida umumiy va professional ta’limda inklyuziv ta’limning xavfsiz muhitini yaratish masalalariga e’tibor qaratishgan.

Ta’lim tizimida pedagogik innovation klaster tizimini joriy etish va undan maqsadli foydalanish doirasida tadqiqotchilar U.N.Xodjamqulov, J.E.Usarov, F.U.Qodirova, S.A.Toshtemirova, D.Qarshieva va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib ilmiy fikr va nuqtai nazarlar ilgari surilgan.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni inklyuziv ta’lim doirasida o‘qitish yuzasidan tadqiqotchilar F.U.Qodirova, M.M.Arslanova, S.Shodmonova va boshqalar tomonidan ilmiy - amaliy ishlar olib borilgan bo‘lib, inklyuziv ta’limni zamon talabiga mos holda tashkil etishi yuzasidan ilmiy mulohazalar bildirilgan bo‘lsa, I.Xabibullaev ,S.Abdullayeva, M.N.Valixanov, M.Yu.Yunusov, J.M.

Nabixonov, Z.F.Ilyasova va boshqalarning ilmiy–nazariy qarashlarida mavzuga oid metodik fikr va mulohazalar bayoni tahlil etilgan.

Inklyuziv umumta’lim maktablarida tahsil oluvchi imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni hayot xavfsizligini ta’minlash amaliyotini takomillashtirishning nazariy asoslarini yaratish, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarini xavfsiz hayot faoliyatiga tayyorlash samaradorligini oshirishga ko‘maklashuvchi uzlusiz hayotiy, ilmiy, innovation loyihalarni shakllantirish va amaliyotga joriy etish ilmiy fundamental tadqiqotni talab etadigan masalalardandir.

**I.BOB. INKLYUZIV TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA  
O'QUVCHILAR HAYOT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING  
NAZARIY ASOSLARI**

**1.1.Inklyuziv ta'lismi muhitini yaratishning ijtimoiy-pedagogik  
aspektlari**

O'zbekiston Respublikasi ta'lismi siyosatida fuqarolarining kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeい hamda sog'lig'idan qat'i nazar, barcha darajadagi sifatli ta'lismi olishlari uchun teng sharoitlar yaratish konstitutsiyada belgilab qo'yilgan.

Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son qarorga muvofiq "2020 — 2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi" ishlab chiqilib, uni amalga oshirish mexanizmlari va yo'l xaritasi shakllantirilgan. Unda Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Bola huquqlari bo'yicha vakil, Bosh prokuratura, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda boshqa muvofiqlashgan holda o'z vakolatlari doirasida ushub konsepsiyanı amalga oshirishi belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>.

O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar uchun jadal rivojlanayotgan va takomillashtirilayotgan umumiy ta'lim tizimi keyingi kasbiy ta'lim uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu an'anaviy ravishda ularni umrbod ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, istiqbolda kasbiy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son qarorga muvofiq "2020 - 2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi" <https://lex.uz/docs/5044711>

faoliyatni tanlash, kelajakda ishga joylashish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishda hamda jamiyatni barcha sohalarida to'liq va adekvat ijtimoiy faolligini ta'minlaydi.

Albatta bu jarayon, inklyuziv ta'limda PITK ni taqozo etishi va uning asosida yanada samarali amalga oshishi shu kungacha bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy- amaliy tadqiqotlar negizida aks etmoqda.

Tadqiqotchilar S.V.Alexinoy va M.M.Semago ilmiy mulohazalariga ko'ra ta'limdagi inklyuziv jarayon deganda, imkoniyati cheklangan bolalarni umumiyligi muassasasida oddiy tengdoshlari muhitiga kiritish va qabul qilishni, moslashtirilgan yoki individual ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim ehtiyojlari nuqtai nazaridan o'qitishni ta'minlaydigan maxsus tashkil etilgan ta'lim jarayoni tushuniladi[67].

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim olishida asosiy narsa tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim va ijtimoiy tajribani egallashidir. Inklyuziv ta'lim samaradorligining asosiy mezoni bu - barcha yoshlarni, shu jumladan alohida ta'limga muhtoj bolalarni sotsializasiya jarayoni va madaniy ongini oshirish, hamda ijtimoiy tajribasini rivojlanirishdir.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim jarayoni haqidagi ilmiy-nazariy g'oyalar xilma-xil bo'lib, inklyuziv ta'lim to'liq standartlar asosida joriy etish yuzasidan aniq va tayyor o'qitish modellari mavjud emas. Shuningdek, ta'lim muassasalarida inklyuziv jarayonni rivojlanishini konstruktiv tavsiflash imkonini beruvchi mexanizmlar to'liq shakllantirilmagan.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar uchun o'quv mashg'ulotlarga tez moslashish elementlarini o'zida shakllantirgan trening mashg'ulotlar majmuasini tashkil etish, uni qo'llash faoliyatini amalga oshirish yuzasidan ilg'or pedagogik texnologiyalar dasturini ishlab chiqish zarur. Inklyuziv ta'lim jarayonida maxsus o'quv sharoitlarini yaratish, ularni amaliyatga joriy etish, har qanaqangi ziddiyat va ijtimoiy muammolarni chetlab o'tgan holda har bir imkoniyati cheklangan bolalarni, nogironlik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'qitish uchun o'quv dastur va o'quv-uslubiy rejalarini shakllantirish kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Shayxontohur tumani 324-sonli umumta’lim maktab 2015 yildan buyon imkoniyati cheklangan bolalarni ayrim toifalarini o‘qitish bo‘yicha ma’lum tajriba to‘plagan. Ushbu maktab faoliyatini OTM va boshqa hamkor va mas’ul tashkilotlar bilan bog‘lagan holda imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’lim klasteri modelini ishlab chiqish mumkin.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’lim klaster modelini ishlab chiqish va joriy etish zarurati nimada, hamda buning uchun qanday ehtiyoj bor degan savol tug‘ilishi tabiiy hol.

Zamonaviy ta’limning yangi paradigmasi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi, ya’ni dunyoni istalgan nuqtasida mavjud bo‘lgan ta’lim jarayonida ishtirok etish va istalgan ish joyida faoliyat olib borish, hamda har qanaqa holatda uzluksiz ta’limning asosiy maqsadiga erishish nuqtai nazaridan faoliyatni muvofiqlashtirib borish faqat klaster sharoiti asosida yuzaga chiqarilishi mumkin.

Ta’lim va klaster so‘zining o‘zaro bog‘liqligi xususida bir qator tadqiqotchilar ilmiy mulohazalarini bildirib, uning mazmun mohiyati haqida quyidagi ta’riflarni berishgan.

Tadqiqotchi Ye.P. Belan klaster yondashuviga o‘tish zarurati kasb-hunar ta’limi tizimi samaradorligini oshirish maqsadida manfaatdor tomonlar sa’y-harakatlarini birlashtirishning tashkiliy shakli sifatidagi afzalliklari bilan ham izohlanadi deydi. Shuningdek, uning nuqtai nazaricha ta’lim klasterini shakllantirish va rivojlantirish kasbiy ta’limni tabaqlashtirish va individuallashtirishda muhim ahamiyat kasb etib, sohalararo integrasiya jarayonini yanada muvofiqlashtiradi[10].

Garvard universiteti professori M.Porter 1990-yilda biznes texnologiyalari sohasidagi klaster haqida fikr yuritib, - umumiyl faoliyat bilan ajralib turadigan va bir-birini to‘ldiruvchi ma’lum hududlarda faoliyat yurituvchi, jug‘rofiy jihatdan bir-biriga bog‘langan kompaniyalar va bog‘liq tashkilotlar guruhi tushuniladi degan ilmiy mulohazani ilgari surgan. Uning mulohazasiga ko‘ra, dastlab sanoat va bilim talab qiladigan tarmoqlar uchun ishlab chiqilgan ushbu yondashuv asta-sekin

jamiyat faoliyatining boshqa sohalariga ham kirib kela boshlaydi, ko‘p jihatdan klasterni keng qo‘llanilishi, yuqori samaradorlik va tashkil etish qulayligi bilan bog‘liq[35].

Klaster so‘zning mohiyatini uni etimologiyasiga murojaat qilish orqali ochib berish maqsadga muvofiqdir.

Klaster inglizcha (“Cluster” - “klaster”) so‘zdan olingan bo‘lib, bir nechta bir xil elementlarning birikmasi va ma’lum xususiyatlarga ega mustaqil birlik degan ma’nolarni anglatadi[34].

Klaster - bu ma’lum bir hududda faoliyat yurituvchi, umumiylar bilan tavsiflangan va bir-birini to‘ldiruvchi qo‘shni o‘zaro bog‘langan kompaniyalar va tegishli tashkilotlar guruhi dir[17].

Tadqiqotchi Yu.V.Gromiko nuqtai nazarida ta’lim klasteri bu -sanoat va ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda birlashtirilgan o‘zaro bog‘liq kasbhunar ta’limi muassasalari yig‘indisidir[25].

Bizning nuqtai nazarimizcha inklyuziv ta’lim klasteri - imkoniyati cheklangan ta’lim oluvchilar uchun fan va innovation ishlab chiqarish texnologiyalari zanjirini maqsadli va manfaatli bog‘langan, maxsus ta’lim va o‘z-o‘zini rivojlantirish vositalari tizimi bo‘lib, tolerantlik negizida shakllanadigan gorizontal aloqalar munosabatiga asoslangan zamonaviy yondashuvdir.

Shunday qilib, klaster - bu bitta faoliyat sohasi bo‘yicha birlashtirilgan va bir-birini to‘ldiradigan hududiy, hamda o‘zaro manfaatdor korxona va tashkilotlar majmuasidir. Ta’lim klasterining asosiy farqi uning ishtirokchilari tarkibida ta’lim muassasalarini yetakchi rolida emas, balki klaster faoliyati natijasi bo‘lgan o‘ziga xos (ta’lim xizmati, o‘quv jarayoni va kadr) mahsulot sifatidadir. Ta’lim klasterida asosiy mahsulot ta’lim xizmatlari hisoblanadi. Shu bilan birga, ta’lim klasteri turli darajadagi va mutaxassislikdagi ko‘plab ta’lim muassasalarini o‘z ichiga oladi. Biroq, sanoat va ta’lim klasterlarini ajratish nafaqat akademik qiziqish, balki amaliy g‘oyadir. Agar klaster ta’lim muassasalar ishtirokidagi tarmoq klasteri sifatida qaralsa, u holda klaster korxonalarida xodimlarning bilim darajasini oshirish vazifalari, boshqaruvni ustuvor vazifalari qatoriga kiradi. Bunda, korxona

tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlariga so‘rovni shakllantirish, ta’lim muassasalaridagi ilmiy potensial orqali mavjud ishlanma va texnologiyalarni tijorat jihatdan muvaffaqiyatli mahsulotga aylantirish vazifalari va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotchi A.V.Smirnov ta’kidlaganidek, klasterda hududiy biznesning raqobatbardoshligini oshirish vazifasi hal etilmoqda (bu pirovardida hamma uchun, jumladan, ta’lim muassasalar uchun ham foydali). Agar klaster - ta’lim klasteri sifatida qaralsa, mintaqada ta’limning sifatini oshirish masalasi ustuvor vazifaga aylanadi[64].

Biz bugungi kunda respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’limning klaster modelini joriy etish ustuvor masalalardan biri deb bilamiz. Chunki bu zamon talabi bo‘lib, dunyo hamjamiyati bilan integrasiya jarayoni tezlashib borayotgan bir davrda, chetda qoladigan masalalardan emas. Uning nazariy asosi mustaqil hayot falsafasi bo‘lib, imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyat bilan integrasiyasini va sotsializasiyasini ta’minalash, hamda ularni mavjud qobiliyatlarini ro‘yobini yuzaga chiqarishdir.

Inklyuziv ta’lim klasterida markaziy o‘rinni umumiyl maqsad egallaydi, ya’ni imkoniyati cheklangan bolalarga zamonaviy ta’lim dastur va xizmatlaridan foydalinishda teng imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida, imkoniyati cheklangan bolalar o‘qish va o‘rganish ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi, shaxsiy ko‘nikmalarini shakllantiradi, hamda kasbiy qiziqishlarini rivojlanishga bo‘lgan ishtiyoq ortib, istiqbolda egallashi zarur bo‘lgan kasb yuzasidan mustaqil qarorlar qabul qiladi.

Tadqiqotchi R.M.Asadullin ta’kidlaganidek, ta’lim klasteridagi integrasiya nafaqat ta’lim muassasalarining turli tarkibiy bo‘linmalarini rasmiy birlashmasi, balki qo‘yilgan vazifalarni hal qilishda super effektga erishish uchun mavjud potensialarni konyugasiya qilishni yangi shaklidir[3].

Albatta konyugasiya (jarayon va holatlar birligi) natijasida inklyuziv ta’lim sharoitida yuqori samaradorlikni yuzaga chiqarib, imkoniyati cheklangan bolalarda ham super effekt potensialini klaster negizida shakllantirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimida imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirishning klaster modeli inklyuziv ta’limni ta’minlaydigan mas’ul va manfaatdor vazirlik va tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni zamonaviy pedagogik, hamda tashkiliy masalalarini taqozo etadi. Inklyuziv klaster sub’ektlarining o‘zaro va o‘z-o‘zini rivojlantirishi, mavjud muammo ustida ishslash jarayonida barqaror hamkorlikni rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon inklyuziv ta’lim ishtirokchilarni ham, klasterning ham o‘ziga xos afzalliklarini yuzaga chiqaradi.

Inklyuziv ta’lim klasteriga quyidagi vazirlik (korxona va tashkilotlar) tarkibiy bo‘limlarini jalb qilinishi mumkin: Xalq ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Bola huquqlari bo‘yicha vakil, Bosh prokuratura, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklar.

1-jadval.

### **Inklyuziv ta’lim klaster modelini tuzilishi**

<b>Nº</b>	<b>O‘quv jarayonini tashkil etishga qaratilgan faoliyatlarni muvofiqlashtirish, hamda yo‘nalishlari</b>	<b>Vazirlik (korxona va tashkilotlar) tarkibiy bo‘limlari</b>
1	Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalar (o‘quvchilar) sog‘lig‘ini saqlash va barqarorligini ta’minlash.	Xalq ta’limi vazirligi; Sog‘liqni saqlash vazirligi
2	Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalar (o‘quvchilar)ni individual ta’lim	Xalq ta’limi vazirligi; Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi; Bandlik va mehnat

	traektoriyalari doirasida o‘quv kurslarining optimal mehnat zichligini aniqlash.	munosabatlari vazirligi
3	Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalar (o‘quvchilar)ni ta’lim jarayonida ortiqcha yuklamalarini oldini olish.	Xalq ta’limi vazirligi; Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi; Sog‘liqni saqlash vazirligi
4	Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalar (o‘quvchilar) uchun optimal mashg‘ulot rejimini ishlab chiqish.	Xalq ta’limi vazirligi; Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi; Moliya vazirligi.
5	Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalar (o‘quvchilar) uchun jismoniy tarbiyaning individual dasturini belgilash.	Xalq ta’limi vazirligi; Jismoniy tarbiya va sport vazirligi; Sog‘liqni saqlash vazirligi.
6	Inklyuziv ta’lim jarayonining iqtisodiy asoslari	Xalq ta’limi vazirligi; Moliya vazirligi; Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi.
7	Inklyuziv ta’limda axborot ta’lim texnologiyalarini zamонавиy avlodini joriy etish	Xalq ta’limi vazirligi; Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari rivojlantirish vazirligi; Moliya vazirligi; Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi.
8	Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalar (o‘quvchilar) uchun individual o‘quv dasturlarini yaratish va elektron ta’lim resurslari shakllantirish	Xalq ta’limi vazirligi; Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari rivojlantirish vazirligi; Moliya vazirligi; Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi; Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi; Sog‘liqni saqlash vazirligi; Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi;
9	Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalar	Maktabgacha ta’lim vazirligi; Xalq ta’limi vazirligi; Sog‘liqni saqlash

	(o‘quvchilar)ni, MTTdan maktabga, maktabdan litsey va texnikumga (o‘rta maxsus ta’limga), o‘rta maxsusdan OTMga qabul qilish	vazirligi; Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi; Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi;  Mahalla va oilani qo‘llab- quvvatlash vazirligi; Yoshlar ishlari agentligi;  Bola huquqlari bo‘yicha vakil.
10	Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalar (o‘quvchilar) uchun tayyorgarlik kurslarini litseyga qabul qilish	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklar; Maktabgacha ta’lim vazirligi;  Xalq ta’limi vazirligi; Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi;  Bola huquqlari bo‘yicha vakil
11	Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalar (o‘quvchilar)ni o‘qitish uchun oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, hamda malakasini oshirish.	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; Xalq ta’limi vazirligi;  Xalq ta’limi vazirligi; Axborot texnologiyalari va kommunikasiya- larini rivojlantirish vazirligi;  Moliya vazirligi; Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi.

Ilmiy tadqiqot ishimizda inklyuziv ta’limning klaster modelini amaliyatga realizasiya etish masalalari bosqichma-bosqich amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bu jarayon real ilmiy tadqiqotlarga asoslanishi nazarda tutilgan holda istiqboldagi ilmiy izlanishlarimizda nazariy va amaliy misol va omillar bilan yanada kengroq asoslanadi.

Ta’kidlash lozimki, bu jarayon real ilmiy-amaliy tayyorgarlik bosqichini taqozo etadi. Magistrlik ilmiy tadqiqot ishimizda inklyuziv ta’limning klaster modelini amalga oshirish yuzasidan mas’ul va manfaatdor tashkilotlarning hamkorlik ishlari yuzasidan loyihaviy ishlar rejalashtirildi. Istiqbolda model sifati va uni samaradorligini baholash yuzasidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishi

ko‘zda tutilgan. Shuningdek, respublika xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha klaster modelini joriy etishda manfaatdor tomonlarning sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish yuzasidan ilmiy –amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi nazarda tutilgan bo‘lib, tashkiliy masalalarda klasterning afzalliklari yoritilgan holda imkoniyati cheklangan bolalar (o‘quvchilar)ni o‘qitish jarayonini tashkil etish imkonini zamon talabi darajasida tashkil etish va pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan maqsadli foydalanishni ilmiy asoslari yaratiladi.

Inklyuziv ta’limni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik omillarini o‘rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu jarayon ko‘p funksiyali xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqotchi N.M.Nazarova nuqtai nazaricha inklyuziv ta’limda ijtimoiy-pedagogik yondashuv, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ning tabiat va hissiy hayoti tajribasini ijtimoiy jihatdan aniqlashga va yo‘naltirishga xizmat qiladi[46].

Ta’kidlash lozimki, inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ga shaxsiy yondashuv jarayoni orqali ijtimoiy integrasiyani yuzaga chiqarib, ijtimoiy muhit bilan faol kommunikativ o‘zaro ta’sirga yo‘naltiradi, hamda olingan bilim va ko‘nikmalar muvofiqligini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim tushunchasi interaktiv yondashuv orqali oshiriladigan ekzistensializm, pragmatizm, postmodernizm, fenomenologiya kabi falsafiy g‘oyalari bilan ifodalanadi. Aynan shu yondashuvni tadqiqotchi N.M.Nazarova xorijiy pedagogikada inklyuziv ta’limning nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi deb ta’kidlaydi[46].

Tadqiqotchi A.V. Suvorovning ta’kidlashicha, har qanday ta’lim, shu jumladan inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi) ni o‘qitishda ijtimoiy-madaniy omillarga asoslantirilishi lozim. Ta’lim jarayonida madaniyat o‘zlashtirilmaydi, balki qayta yaratiladi. Hayot davomida o‘z-o‘zini tarbiyalash shaklida ideal tarzda davom etadigan ta’lim jarayoni natijasida har bir kishi o‘ziga xos, individual madaniyat namunasini rivojlantiradi[71].

Tadqiqotchi A.Yu.Shemanov imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi) o‘qitish jarayonida "maxsus madaniy ehtiyojlarini" hisobga olish zarurligini asoslaydi. Uning nuqtai nazaricha bunday ehtiyojlarni hisobga olish muayyan munosabatlar tizimlarini, identifikasiyalarni tashkil etuvchi elementlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi) uchun mos keladigan madaniy muhitni tavsiflashni anglatadi. Uning ta’kidlashicha, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni nuqsoniga emas, balki qobiliyatiga e’tibor qaratish lozim[89].

Tadqiqotchilar Alicia Broderick, Heeral Mehta-Parekh, D.Kim Reid umumiylar ta’lim mакtablarida imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni inklyuziv madaniyat shakllanmagan sharoitda o‘qitishni tashkil etish, jamiyatda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishni ta’kidlagan[93]. Ularning nuqtai nazaricha inklyuziv madaniyat kundalik hayotda namoyon bo‘ladigan va chinakam inklyuziv maktabni belgilovchi ko‘rsatkich sifatida xizmat qiluvchi murakkab hodisadir.

Bizning nuqtai nazarimizcha, inklyuziv ta’limni madaniy omillar asosida tashkil etish, gumanistik yondashuv sifatida e’tirof etilib, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar ta’limi umuminsoniy – madaniy qadriyatlar negizida shakllantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-pedagogik jarayondir.

Tadqiqotchi N.Ya.Semago nuqtai nazaricha inklyuziv ta’limning mohiyatini sinergetik yondashuv tashkil etadi. Shuningdek, tizimli tahlilning toifali matrisasiga triadilik, strukturaviy o‘zgarishlar sinxronligi (sintonalligi), simulyatsiya qilingan tizimlarni fraktalligi (o‘ziga o‘xshashligi) kiritilishi zarurligini ta’kidlaydi[58].

Sinergetik yondashuv inklyuziv ta’lim tizimi rivojlanishining muayyan bosqichlarida o‘zgarishlar dinamikasi va xarakterini nazorat qilish uchun ahamiyat kasb etadi.

Bu borada tadqiqotchi N.M.Nazarovani ilmiy mulohazalari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning nuqtai nazaricha inklyuziv ta’limda sinergetik yondashuv asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. "Ta’lim integrasiyasining tashkiliy-pedagogik muammolarini hal qilishda sinergetik yondashuvdan foydalanish

nafaqat tizimni rivojlantirishda bifurkasiya nuqtalarini aniqlash ta'minlaydi, balki unga o'z vaqtida yordam beradi"[46].

Bizning nuqtai nazarimizcha bu yondashuvdan inklyuziv ta'limni tashkil etishda foydalanish imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar shaxsi bilan bog'liq muammolarni tizimli bartaraf etish, hamda dinamik muvozanatni barqarorlashtirishda alohida ahamiyatga ega bo'lib, pedagogik texnologiyalarini asoslash va rivojlantirish, hamda individual ta'lim ehtiyojiga muvofiq o'zgarishlarni yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan inklyuziv ta'limni jahon inklyuziv ta'lim jarayoni integrasiyasining nazariy va uslubiy asoslari bilan bog'lash, mahalliy va mentalitetimizga mos uslubiy asoslarni ishlab chiqish O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tizimli institutsional o'zgarishlarga o'tish yo'lidagi muhim omillardan hisoblanadi.

Xulosa o'mida aytadigan bo'lsak, bu borada mavjud muammolar yuzaga kelishi tabiiy hol. Jumladan, inklyuziv ta'limni tashkil etish va jamiyat hayotiga joriy etishda eng qiyin masalalardan biri odamlarning ongi va dunyoqarashidagi nostandard fikr – mulohazalarni muvofiqlashgan tizimga keltirishdir. Inklyuziv ta'limning nazariy va uslubiy, hamda amaliy asoslarini yaratish, amalga oshirish mexanizmlarini zamon talabiga mos shakllantirish jarayonlari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda bayon etilgan fikrlarni yetarlicha xilma-xillagini hisobga olgan holda, jamiyat munosabatini insoniyashtirish va imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni ta'lim olish huquqini ta'minlovchi ijtimoiy-pedagogik asoslarini PTIK doirasida muvofiqlashtirilishi lozim degan ilmiy mulohazamizni ilgari suramiz.

Bunda:

- inklyuziv ta'lim tizimini zamona talabiga moslash, hamda manfaatdor tashkilot va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirgan holda ijtimoiy-pedagogik islohotlarni innovasion texnologiyalar asosida tashkil etish;
- yaxlit inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning tabiiy jarayoni va uni umumiy ta'lim bilan integrasiyasini optimal modelini ishlab chiqish;

- inklyuziv ta'lim tizimi shakllantirish orqali jamiyatning barcha ta'lim tizimi bosqichlarida iklyuzasiyani samarali mexanizmini joriy etish;
- ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida inklyuziv ta'limning asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish;
- inklyuziv ta'lim integrasiya va uning o'tish jarayonlari bilan bog'liq omillarini ajratib ko'rsatish, hamda pedagogik profilaktikasi va psixologik korreksiyasini muvofiqlashtirish;
- ijtimoiy hodisa sifatida inklyuziv ta'limning pedagogik asoslari, qadriyatlari va tamoyillari, hamda muvaffaqiyat ko'rsatkichlarini aniqlash;
- inklyuziv ta'limning xususiyati va mafkurasini falsafiy hamda pedagogik-psixologik asoslarini ishlab chiqish.
- integrasiyalashgan inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun innovation ta'lim texnologiyalari asosida "**to'siqsiz muhit**" konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga realizasiya etish.

## **1.2. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar hayot xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslarini psixologik omillari**

Respublikamizda dunyo hamjamiyati bilan barcha sohalarda faol integrasiya jarayoni rivojlanib borayotganligi, inson-huquq va erkinliklarini barcha jabhada yuqori darajada tashkil etish, ularning tajribalaridan maqsadli va samarali foydalananish masalalari kun tartibidagi aktualligi borgan sari oshirib bormoqda.

Bu jarayonlar jamiyatning barcha kuchlarini muvofiqlashtiradigan va yuzaga olib chiqishiga zamin bo'lgan ta'lim tizimida ham sezilarli darajada aks etib, yangicha yondashuvlarni hayot tarziga aylantirib, aholini barcha qatlam va toifalari uchun ijtimoiy faollikni amalga oshirishlariga yo'naltirmoqda.

Xususan, bugungi kunda umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim faol amalga oshirilmoqda va alohida ta'limga muhtoj bolalar normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan birgalikda o'qitilayapti. Tadqiqotchi A.S.Batalov ta'biri bilan aytganda, inklyuzivlik alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan imkoniyati cheklangan

bola (o‘quvchi)lar uchun yagona ta’lim maydoni g‘oyalariga asoslanib, turli xil ta’lim yo‘nalishlariga ega[7].

Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar uchun ularning alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda foydalinish mumkin bo‘lgan ta’limni ta’minlashni nazarda tutadi. Alohida ta’limga muhtoj bola qaysi ta’lim dasturida va qaysi ta’lim muassasasida o‘qishi to‘g‘risida qaror ota-onalar (qonuniy vakillar) tomonidan ta’lim tizimiga o‘quvchilarni yo‘naltirishga muvofiqlashtirilgan konsulim (psixologik, tibbiyat xodimi, pedagogik, defektolog va boshqa) xulosasi tavsiyalari asosida qabul qilinadi

Inklyuziv davlat va jamiyat boshqaruvi hayotida bir qancha qulaylik va omilkorlikni keltirib chiqarishi tabiiy hol. Ammo, ta’lim tizimida bu jarayon bar qator muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Umumta’lim maktablarida inklyuzivlikni joriy qilishda yuz berishi mumkin bo‘lgan muammolar va xavflarga e’tibor qaratish lozim. Jamiyat va ota-onalarning imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni ta’lim olishiga bo‘lgan munosabati, hamda individual xususiyatlarni taqozo etadigan turli xil ta’lim dastur va resurslarini yaratish bilan bog‘liq masalalar diqqat markazida bo‘lishi kerak.

Maxsus ta’limga muhtoj bolalar turli xil (aqliy yoki jismoniy) nogiron bolalarni o‘z ichiga olganligi sababli nostandard guruh deb e’tirof etiladi. Chunki bu toifaga mansublik eshitish, ko‘rish funksiyalari, nutqi, tayanch-harakat tizimi, aqliy zaifligi, hissiy-irodaviy sohaning og‘ir buzilishlari, autizm spektrini buzilishi, shuningdek, rivojlanishning murakkab buzilishlari bo‘lgan bolalardir.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni inklyuziv ta’limga jalb etish jarayonida ular uchun maxsus davlat ta’lim standarti (nogironlik alomati va xususiyatlaridan kelib chiqib) yaratilishi taqozo etiladi. Bunda umumiyligi ta’lim doirasida moslashtirilgan ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish talablarini taqdim etadi. Ushbu standart har bir moslashtirilgan dasturni, ya’ni ma’lum bir toifadagi bolalar dastur bo‘yicha o‘qish davomida qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerakligini tavsiflashi lozim.

Tadqiqotchilar I.N.Simaeva va V.V.Xitryuk inklyuziv ta’lim maydoni xususida ilmiy mulohazalarni bildirib, jumladan shunday deydi: - inklyuziv ta’lim maydoni ijtimoiy makonning integrasion birligi bo‘lib, uning mazmunini, o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan tarkibiy qismlar, bloklar tizimi bilan ifodalanadi. Bunda ta’lim va shaxslararo munosabatlar har bir ishtirokchi uchun qulay formatda amalga oshiriladi, hamda shaxsiy va ijtimoiy imkoniyatlar rivojlanish va o‘z-o‘zini o‘zgartirishni ta’minlaydi[62].

Inklyuziv makonning asosiy maqsadi ota-onalar, o‘quvchilar, o‘qituvchi va murabbiylar, hamda boshqa mutaxassislarini ta’lim va tarbiya, ijtimoiy moslashish, sog‘lijni saqlash, korreksion rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan faoliyat turli jarayonlariga jalb qilishdir.

Tadqiqotchi A.S.Batalov nuqtai nazaricha inklyuziv makonning ikkita modeli mavjud bo‘lib, ular ehtimoliy ta’sir doiralarini qamrab oladi. Birinchisi, bitta ta’lim muassasasi ichida, ikkinchisi esa uning tashqarisida. Ikkinci model maxsus korreksion maktab bo‘lib, mакtab va internatlarning qo‘srimcha ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini o‘z ichiga oladi. Bular alohida ta’limga muhtoj bolalar ishtirokidagi turli ko‘rgazmalar, tadbirlar va teatrlashtirilgan tomoshalarni tashkillashtiradi[8].

Davlat maktablarida o‘qiyotgan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni muvaffaqiyatli o‘rganish va ijtimoiylashtirish uchun xavfsiz sharoitlar yaratilishi lozim. Bu tayanch-harakat tizimi kasalliklari bo‘lgan bolalar uchun maxsus jihozlangan panduslarni yaratishni o‘z ichiga oladi (ko‘pincha miya yarim falajli bolalar); ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalar uchun maxsus didaktik materiallar va vositalar; eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun - maxsus ovoz kuchaytiruvchi qurilmalar. Demak, alohida ta’limga muhtoj bolalarni o‘z ichiga olgan barcha maktablar yaxshi texnik, uslubiy baza bilan jihozlangan bo‘lishi, shuningdek, o‘qituvchilar tarkibini tegishli ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassislariga ega bo‘lishi kerak. Ammo, afsuski, hozirgi vaqtda o‘qituvchi imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar bilan qanday ishlashni bilmay, uni tengdoshlaridan “ajratib qo‘yadigan” vaziyatni kuzatish mumkin, bu esa sinfdagi bolalarning bunday bolaga

bo‘lgan munosabatini yomonlashtiradi. Professional kompetentlik nuqtai nazaridan baholaydigan bo‘lsak, o‘qituvchi ta’lim jarayonining eng muhim ishtirokchisi va muvofiqlashtiruvchisidir.

Tadqiqotchi O.V.Solodyankina nuqtai nazaricha inklyuziv ta’lim makonini xavfsizligini tashkil etishning muhim jihat - bu mutaxassislarini imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning ota-onalari, sinf o‘quvchilari va ular o‘rtasidagi munosabatlar integrasiyasi, moslashuv va hamkorlik omillarini muvofiqlashtirib borishida aks etadi. Chunki bola oilada muayyan xulq-atvor ko‘nikmalarini, o‘zi va o‘zgalar haqida, butun dunyo haqidagi g‘oyalarni o‘rganadi[69].

Bizning nuqtai nazarimizcha, inklyuziv ta’lim makonini xavfsizligini tashkil etish va barqarorlashtirishda o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning ota-onalari bilan ishlashni pedagogik-psixologik dasturini shakllantirish va bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi) va uning oilasini birlamchi pedagogik-psixologik portretini yaratish va diagnostikasini amalga oshirish;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar bilan bevosita ta’lim- tarbiyani tashkil etadigan (inklyuziv sinflarda dars mashg‘ulotlarini olib boradigan) mutaxassisni ota-onalar bilan yaqindan tanishtirish va aloqa o‘rnatishini ta’minlash;
- reabilitasiya kartalari, mutaxassislarning mulohazalari va diagnostik ma’lumotlari asosida inklyuziv ta’limga jalg etilgan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ni individual qo‘llab-quvvatlash dasturini tuzish;
- inklyuziv ta’limga jalg etilgan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ning ota-onalari bilan mакtabda faoliyat olib boruvchi “konsulim” ishchi guruh ish rejasini tuzish;
- oddiy rivojlanayotgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash suhbatlar uyushtirish va bolalarini fikrlari xususida ma’lumotlarni jamlash va kontent analiz qilish;

- oddiy rivojlanayotgan bolalar va imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning ota-onalari bilan qo'shma tadbirlarlar o'tkazish, hamda bayram konsertlar tashkillashtirish;

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, inklyuziv ta'lim maydoni imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi) tahsil olayotgan ta'lim ularni o'qitish uchun ta'lim standartlari va me'yoriy-huquqiy baza, hamda malakali o'qituvchilar mavjud bo'lgan hollarda xavfsiz bo'ladi.

Imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ni o'qitish va tarbiyalash, hamda inklyuziv amaliyotni amalga oshirishni uchun zarur sharti - bu ta'lim muassasasida psixologik-pedagogik yordam bo'yicha mutaxassislarning mavjudligi. O'qituvchi va yordamchi mutaxassislarning o'zaro hamkorligi jamoaviy bo'lishi kerak, ammo bu darhol sodir bo'lmaydi, chunki mutaxassislarni har biri o'zining yuqori ixtisoslashgan funksional vazifalarini hal qiladi. Ammo inklyuziv ta'limni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalari tajribasi shuni ko'rsatadiki, umumiy til topmasdan, "maxsus" bolani ta'lim jarayoniga kiritish bo'yicha umumiy murakkab vazifalarni qo'ymasdan, mактабning bu yo'nalishdagi faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi.

Mutaxassislar o'zlarining kasbiy tayyorgarligi va majburiyatlariga muvofiq quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradilar: maslahat, tarbiyaviy, korreksion va rivojlantiruvchi, diagnostika va tahliliy, profilaktika, tarbiyaviy va boshqa zaruriy ehtiyojlar. Shu bilan birga, ta'lim muassasasida ishlaydigan barcha mutaxassislarning faoliyati, inklyuziv amaliyotni amalga oshiruvchi muassasa xususiyatga muvofiqlashgan va yo'nalgan bo'lishini taqozo etadi.

Psixolog, o'qituvchi-defektolog, logoped, ijtimoiy pedagog o'zlarining tor kasbiy vazifalarini hal qilishdan tashqari, umumiy ta'lim mактабida alohida ta'limga muhtoj bolalarni moslashtirish, o'qitish va ijtimoiylashtirish uchun sharoit yaratishda faol ishtirok etadilar. Tadqiqotchi Ye.V.Samsonova ta'kidlaganidek, inklyuziv ta'limda psixologik-pedagogik yordam - barcha mutaxassislar ta'lim standarti, individual ta'lim rejasi, talablariga muvofiq asosiy va umumiy ta'lim

dasturining bir qismi sifatida imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ni korreksiya ishlarini amalga oshirish bilan bog‘liq[55].

Psixologik nuqtai nazarda aytishimiz mumkinki, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar kattalar (o‘qituvchi va ota-onada)dan alohida e’tibor va g‘amxo‘rlikni talab qiladi. Shuni alohida ta’kidlashimiz kerakki, fan o‘qituvchisi dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar davomida har bir o‘quvchiga yetarlicha e’tibor bera olmaydi (imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ga ham sog‘lom o‘quvchiga ham). Inklyuziv ta’limda o‘qituvchi imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larga ko‘p e’tibor qaratishi va ular bilan sinfda dars davomida ko‘proq muloqot qilish, hamda alohida e’tibor qaratishi sinf ichki muhitini buzilishiga olib kelib, diskriminasion omil ustuvorligi bolalar ruhiyatida dominant bo‘lib qolishi mumkin. Buning aksi bo‘lganda ham, ya’ni sog‘lom bolalar bilan o‘qituvchi alohida ishlasa yoki ularga ko‘proq e’tibor qaratsa.

Bu vaziyatni muvofiqlashtirish uchun ta’lim muassasani o‘zida fanlar kesimida repetitorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish va muvofiqlashtirilgan holda o‘qituvchining shaxsiy motivasiyasini ham belgilab qo‘yish zarur. Repetitor inklyuziv mifiktabda (sinfda -frontal va individual dasturlar asosida), tanaffus paytida, darsdan tashqari holatlarda bevosita ishlashi uchun zaruriy shart-sharoitlarga ega bo‘lishi kerak.

Tadqiqotchi Ye.V.Samsonova repetitor o‘qituvchining asosiy vazifasi xususida fikr yuritib, quyidagilarni belgilab ko‘rsatadi:

- inklyuziv maktab ta’lim jarayonida bolaning o‘ziga o‘zi yordam berishini ta’minlovchi dasturlarni ishlab chiqish;
- o‘qituvchi va boshqa mutaxassislar bilan muntazam aloqada bo‘lish;
- tengdoshlari orasida imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning psixologik-pedagogik moslashuvi va ijtimoiylashuvi uchun sharoit yaratish;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni individual ta’lim traektoriyasini ishlab chiqish;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni o‘quv ko‘nikmalari va adekvat xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ta'kidlash lozimki, inklyuziv maktabda joriy etilgan fanlar kesimida repetitor yordami ota-onalar uchun - o'z farzandini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ularni barcha kamchiliklari bilan qabul qilishda, hamda xattiharakatlarni (shaxsiy va kasbiy qiziqishlari doirasida) muvofiqlashtirishda amaliy yordam beradi.

Inklyuziv maktablarda imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar uchun repetitorlik faoliyatini joriy etish xususidagi nostandard yondashuvimiz o'qituvchi va repetitor o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik uch yo'nalishda amalga oshirilishini taqozo etadi:

*-Birinchidan:*

- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni o'qitish jarayonida o'zaro hamkorlik dasturi asosida muvofiqlashgan faoliyatni yo'lga qo'yilganligi;
- repetitor imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni darsdan tashqari va tanaffus vaqtida tushunchalarini individual o'zlashtirishga yo'naltirishi;
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ga o'tilgan mavzu va darsning vazifasi, hamda maqsadlarini tushunishga qo'shimcha (nogironlik darajasidan va xususiyatidan kelib chiqib obrazli va vizual, hamda kuchaytirilgan eshitish apparatlari orqali, va boshqa) amaliy loyihalar bilan ko'maklashishi;
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni o'z faoliyatini nazorat qilishga va uni baholashga pedagogik –psixologik motivasion dasturlar bilan rag'batlantirib borishi.

*-Ikkinchidan:*

- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ning sotsializasiysi jarayonida zaruriy pedagogik-psixologik yordamni ko'rsatish;
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ga o'quv jarayonida sinfdosh va fan o'qituvchilar, hamda ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan boshqa shaxslar bilan aloqalarni o'rnatishida kommunikasion mexanizm dasturlarini nogironlik darajasidan va xususiyatidan kelib chiqib) ularga singdirishi;
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ning individual imkoniyatini yuzaga chiqarish va qobiliyatlarini rivojlantirish.

-*Uchinchidan:*

- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning ota-onalari bilan ishslash jarayonida o'zaro munosabatlar yo'naliшlarini belgilab olish;

- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ga ta'lim dasturini o'zlashtirish va ijtimoiylashtirishga yordam berish jarayonida o'qituvchi va ota-onalarning harakatlarini muvofiqlashtirish;

- inklyuziv sinfga dars mashg'ulotlarini olib boradigan malakasi va tajribasi kam o'qituvchilarga o'quv materialini taqdim etish usulini tushuntirish;

- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar uyga berilgan dars topshiriqlari va mustaqil ta'lim bilan bog'liq mashg'ulotlarni ota-onalar bilan birgalikdagi ishslash yuzasidan ko'rsatmalar ishlab chiqish.

Shunday qilib, inklyuziv makonning xavfsizligi umumiy ta'lim mакtabida zarur me'yoriy-huquqiy hujjatlar, uslubiy baza, psixologik-pedagogik yordam bo'yicha mutaxassislarni mavjudligi, shuningdek, mutaxassislarning ota-onalar bilan o'zaro munosabatlariga asoslanadi.

Buning natijasida imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi) jamoada o'zini qulay his qiladi va ijtimoiylashuv muvaffaqiyatli bo'ladi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida bola (o'quvchi)ning psixologik xavfsizligi hozirgi vaqtida muhim ahamiyat kasb etib, psixologik-pedagogik fanlar nazariyasi va amaliyoti uchun tashqi sharoitlarni ruhiy rivojlanishiga ta'siri muammozi keng o'r ganilmoqda.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ning ijobiy rivojlanishini ta'minlamasdan va uni ruhiy salomatligini ma'lum darajada saqlamasdan turib hayotiy pozitsiyasini ta'minlash mumkin emas.

Psixologik xavfsizlik ta'lim muhitining rivojlanish xususiyatini belgilaydigan yetakchi xususiyatdir. U ta'lim va tarbiyaning psixologik-pedagogik sharoitlarini loyihalash va modellashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin, shu bilan birga ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini psixologik salomatligini mustahkamlash va rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqotchi I.A.Baevoy ta'kidlaganidek, ta'lim ishtirokchilar tomonidan psixologik zo'ravonlikdan himoyalanish, shaxsiy ishonchli muloqotda asosiy ehtiyojlarni qondirish holati sifatida boshdan kechiriladigan psixologik xavfsizlik, ta'lim jarayonining barcha sub'ektlari: bolalar, o'qituvchilar, ota-onalarning aqliy va kasbiy rivojlanishi uchun ijobjiy imkoniyatlarni keltirib chiqaradigan shartdir[47].

Tadqiqotchi L.M. Shipisina nuqtai nazaricha inklyuziv ta'lim o'zining asosiy maqsadi sifatida u yoki bu turdag'i ta'limdan teng foydalanishni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlardan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, ona tilidan qat'i nazar, istisnosiz o'qishda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni belgilaydi[90].

Bizning nuqtai nazarimizcha inklyuziv ta'limda "xavfsizlik" tushunchasi ko'proq psixologik tezaurusning tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda va imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ning psixologik xavfsizligini o'rganish alohida mustaqil ilmiy yo'naliш hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ning psixologik xavfsizligi og'ir va ekstremal sharoitlarda inson ruhiyati resurslarini safarbar qilish bilan bog'liq holda, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojni amalga oshirish, psixologik yaxlitligini saqlab qolish, qoniqish hissiga ega bo'lish sifatida qaraladi.

Shu nuqtai nazardan psixologik xavfsizlikni ta'minlash muammosi ushbu ta'lim modelining pedagogik vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shartlaridan biri sifatida inklyuziv ta'lim doirasida alohida dolzarbdir.

Tadqiqotchi I.A.Baevoy ta'kidlaganidek, psixologik xavfsizlik insonni ichki dunyosiga e'tibor berishni, uning aqliy jarayonlari va mexanizmlarini, shaxsiy tuzilmalarini optimallashtirishni o'z ichiga oladi va ijtimoiy moslashuvni ta'minlaydi[47].

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun joriy etilgan inklyuziv ta'limning vazifalari bir nechta funksional omillarni o'zida mujassamlashtirgandir:

- turli xil boshlang'ich imkoniyatlarga ega bo'lgan bolalar uchun yagona ta'lim muhitini yaratish;

- sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyatda psixofizik rivojlanishning alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalar salohiyatini rivojlantirish;
- diagnostik-maslahat, korreksion rivojlanish, profilaktika, ijtimoiy-o‘zaro hamkorligi orqali inklyuziv ta’lim jarayonini samarali psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash.
- davlat ta’lim standartiga muvofiq bolalarning umumiyligi ta’lim dasturlarini ishlab chiqish;
- buzilgan psixologik jarayon va funksiyalarni, hissiy va shaxsiy rivojlanishdagi kamchiliklarni tuzatish;
- ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning muammolariga rasional munosabatni shakllantirish;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning jismoniy, nevropsixik salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni tarbiyalayotgan oilalarga, shu jumladan, o‘quv jarayoniga maslahat berish.

Jamiyatimizda shu kunga qadar inklyuziv ta’limga ehtiyoji bo‘lgan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni psixologik xavfsizligini ta’minlash maqsadida maxsus maktablar va maktab-internatlarda, uyda individual tashkil etilib kelingan.

Bu ta’limning bir qator kamchiliklari mavjud bo‘lib, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar tengdoshlaridan, do‘stlaridan, jamiyatdan ajratilgan holda qoladi va mamlakatining ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

Bu borada ilmiy izlanish olib borgan tadqiqotchi N.N.Malofeev ilmiy mulohazalariga e’tibor qaratish ahamiyatlidir. Uning nuqtai nazaricha imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni tarbiyalash zamонавиy ta’limning dolzarb va munozarali muammolaridan biridir. Ijtimoiy tengsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab cheklovlardan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ning sifatli ta’lim olishiga to‘sinqinlik qiladi[41].

Ushbu ilmiy mulohazadan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda jamiyatimizda tashkil etilayotgan inklyuziv ta'lif zamonaviy pedagogik tamoyillarga to'liq mos kelishi, hamma uchun umumiy dastur bo'yicha o'qish imkoniyati va qobiliyatiga ega bo'lgan normal akademik natijalarni ko'rsatadigan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni to'liq huquq va erkinliklarini kafolatlashi zarur.

Inklyuziv ta'lif bu umumiy ta'lifni rivojlantirish jarayoni bo'lib, u hamma uchun, shu jumladan alohida ehtiyojli bolalar uchun ham ta'lif olish imkoniyatini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lif bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiladigan va barcha odamlarga teng munosabatda bo'lishini ta'minlaydigan, biroq ayni paytda alohida ta'limga muhtoj imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi) uchun zarur shart-sharoitlarni yaratuvchi mafkuraga asoslanadi.

Biz tomonimizdan ilgari surilayotgan "to'siqsiz muhit" konsepsiysi haqidagi ilmiy farazimiz aynan shunga qaratilgan. "To'siqsiz muhit" imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar, hamda ota-onas qaramog'isiz qolgan, og'ir hayotiy vaziyatda bo'lgan bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlab, jamiyatni faol a'zosiga aylantiradi.

Xulosa o'rnida mavzuga oid ilmiy manbalar tahliliga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda jamiyatimizning aksariyat mакtablar va unda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar an'anaviy o'qitish shakllari, tamoyillari va usullarini o'zgartirishga tayyor emas. Sababi imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar bilan ishlash pedagogik-psixologik korreksiyani taqozo etgan holda, maxsus pedagogika bilim va ko'nikmalarni ham talab etadi. Bu bilim va tajriba bugungi kunda aksariyat umumta'lim maktablari o'qituvchilarida yo'q. Shu nuqtai nazardan, pedagogik OTMlarda inklyuziv mакtab ta'limi talablariga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalasi kun tartibiga chiqishi lozim.

Bizningcha bu borada o'qituvchilarni maxsus va ommaviy pedagoglarga sun'iy ravishda ajratmasdan, fanlararo kasbiy integrasiyani ta'minlashga qaratilgan mobil dasturlarni joriy etgan holda zamonaviy o'qitish modelini OTMlarga olib kirish lozim. Bu jarayon inklyuziv ta'lif sharoitida o'qituvchining shaxsiy va

kasbiy salohiyatini faollashtirishga zamin bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, o‘qituvchilar maktabdan tashqarida, shu jumladan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash manbalari va ota-onalar bilan ijtimoiy aloqalarda faol ishtirok etishi namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi shaxsida shakllangan bu kabi kasbiy pozitsiya, inklyuziv ta’lim jarayoni bilan bog‘liq qo‘rquv va tashvishlarni yengishga, kasbiy mahoratning mutlaqo yangi darajasiga ko‘tarilishiga imkon beradi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan o‘quvchilar hayot xavfsizligini ta’minalashning pedagogik-psixologik omillari nuqtai nazaridan quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni jamiyatga ijtimoiy integrasiyalashtirishni asosini ta’minalaydigan pedagogik-psixologik dastur ishlab chiqish zaruriyati;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar sog‘lom odamlar tomonidan bag‘rikenglik va o‘z-o‘zini anglash, hamda yordam berish xulq-atvori umumjamiyat loyihasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar huquqlarini tartibga soluvchi qonunchilik barcha darajada zaif bo‘lib, uni kuchaytirish uchun davlat va jamiyatning ular oldidagi majburiyatları qonun bilan belgilanishi;
- o‘quv maydonini inklyuziv ta’lim talablari doirasida tashkil etish va imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni erkin harakati uchun qulay muhit yaratish;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar va sog‘lom bolalar uchun mavjud bo‘lgan o‘quv dasturlar hajmi va o‘qitish sur’atlarini differensial nuqtai nazardan pedagogik-psixologik tahlilini amalga oshirish;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar va sog‘lom bolalar o‘rtasida sog‘lom kommunikasiya jarayonlarini ijtimoiy psixologik faktorlarini ishlab chiqish;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning o‘qish joyiga yetib borishi va uyiga qaytishi uchun transport vositalarini ularni nogironlik sifat va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muvofiqlashtirish;

- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ni harakatlanish nuqtalari va joylari (maktabga kirish, yo‘laklarda harakatlanish, maxsus kutubxona, oshxonalardan ular uchun maxsus joylarni ajratilishi va moslashtirilishi, “tabiiy zarurat uchun” hojatxonalarini nogironlik xususiyatidan kelib chiqib jihozlash, doska va h.a) inklyuziv ta’lim standartlariga moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni sog‘lom bolalar tomonidan diskriminant holatga tushib qolishi va og‘ir psixologik travmalarga chalinish xavfini bartaraf etish yuzasidan psixologik profilaktik dasturlarni ta’lim jarayoniga muntazam singdirib borish.

### **1.3.Inklyuziv ta’lim klasteri muhitini yaratishda xorij tajribalari**

Bugungi kunda jamiyatimizda o‘qituvchilarini inklyuziv ta’lim sharoitida ishlashga tayyorlash masalalarini faqat xorijiy nazariya va amaliyotda inklyuziyani rivojlantirish tendensiyalarini hisobga olgan holda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’limni shakllantirishda xatolarga yo‘l qo‘ymaslik va imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatadigan o‘qituvchining malakasini oshirish uchun mos strategiyani tanlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazarda xorij mamlakatlarida joriy etilgan inklyuziyaning rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish va nazariy-amaliy jihatlaridan kelib chiqib, istiqbolli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunda mamlakatimizda joriy etilayotgan inklyuziv ta’lim uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi marta normal va zaif rivojlanishi bo‘lgan bolalarni birligida o‘qitish g‘oyasi L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan. Uning nuqtai nazaricha, maxsus mакtab o‘zining barcha afzalliklariga qaramay, asosiy kamchiligi bilan ajralib turadi. Ya’ni bu jarayon o‘z o‘quvchisini - ko‘r, kar-soqov yoki aqli zaif bolani maktab jamoasining tor doirasiga olib kiradi. Ahamiyatli jihat shundaki, hamma narsa bolaning nuqsoniga moslashtirilgan yopiq dunyo negizida, barcha e’tiborni tanadagi nuqsonga qaratadi va uni haqiqiy hayotga kiritmaydi, ijtimoiylashuviga xizmat qilmaydi[19]. L.S.Vigotskiy ushbu ilmiy mulohazasi bilan imkoniyati

cheklangan bola (o‘quvchi)ning normal rivojlanayotgan tengdoshlari va kattalar bilan ijtimoiy aloqalarini maksimal darajada oshirish lozimligiga e’tibor qaratgan.

Shuningdek, L.S.Vigotskiy birinchilardan bo‘lib sog‘lig‘ida muammolar bo‘lgan bolani alohida maxsus maktablarda ajratib o‘qitish tizim samarasiz ekanligi haqidagi ilmiy mulohazalarni ilgari surgan.

Shu nuqtai nazardan, dunyo ta’lim tizimi qonunchiligi va pedagogik amaliyotda inklyuziv ta’lim paydo bo‘ldi.

Tadqiqotchi Ye.R.Yarskaya-Smirnova ilmiy mulohazalariga ko‘ra Yevropa mamlakatlari va AQShda 1970-yillarda imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni bir nechta yo‘nalishlarda, sog‘lig‘ining holatidan qat’iy nazar, ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida inklyuziv o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yilgan[92]. Bundan ko‘zlangan birinchi maqsad imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni, keyinchalik ommaviy bolalar bog‘chalari joriy etish orqali ta’lim muassasalarini inklyuzasiyaga yo‘naltirish bo‘lgan.

Tadqiqotchi N.N.Malofeev ta’lim kontekstida asosiy yo‘nalish bo‘lgan mainstreaming (umumiyoqimga kiritish) masalasiiga e’tibor qaratib imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni inklyuziv ta’lim tizimida o‘qitishni ilgari surib, bo‘sh vaqtni o‘tkazishda tengdoshlari bilan muntazam ravishda muloqot qiladi. Shuningdek, bu jarayon imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larda ijtimoiy aloqalarini kengaytirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi deydi[39].

Tadqiqotchi Ye.R.Yarskaya-Smirnova Yevropa mamlakatlari va AQShda joriy etilgan inklyuziv ta’lim tizimini nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy nuqtai nazardan o‘rgangan bo‘lib, jumladan quyidagi mulohazalarni ilgari suradi. Uning fikricha Yevropa mamlakatlari va AQShda inklyuziv ta’lim normal va zaif rivojlanishi bo‘lgan bolalarni hech qanday shart va cheklavlarsiz birligida ta’lim va tarbiyalash sifatida qaraladi. Biroq, bu maktablarni isloh qilishni, jumladan, sinf xonalarini istisnosiz barcha o‘quvchilarining talab va ehtiyojlariga javob beradigan tarzda qayta qurishni taqozo etadi[92].

Biz tadqiqotchi Ye.R.Yarskaya-Smirnova fikriga qo'shilgan holda, inklyuziv ta'limga jalgan etilgan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar uchun birinchi navbatda, xavfsiz "makon"ni barcha (bino va inshootlarni moslashtirishdan tortib, o'quv manba resurslarigacha, hamda maxsus professional o'qituvchilar va h.a.) elementlarini joriy etish lozim deb o'ylaymiz. Ana shundagina shart va cheklavlarsiz birgalikda ta'lim va tarbiya masalasi sifat darajaga ko'tarilib, ommalashgan tartibda inklyuziv mакtablar soni ortib boradi.

Imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ni sog'lom tengdoshlarining ijtimoiy va ta'lim muhitiga kiritish yuzasidan xorijda olib borgan ilmiy izlanishlarini tadqiq etgan holda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim deb o'ylaymiz:

- o'qituvchilar tomonidan jismoniy va aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan o'quvchilarni sinfdagi boshqa sog'lom bolalar kabi qabul qilish;
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni birgalikdagi ta'lim faoliyatga kirish va turli pedagogik vazifalarni ularning imkoniyatini hisobga olgan holda maksimal va minimal darajasini belgilash;
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni istisnosiz ta'limning jamoaviy shakllariga jalg qilish va o'quv muammolarini jamoaviy hal qilish jarayoniga faol integrasiyasini ta'minlash;
- inklyuziv ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar tomonidan jamoaviy ta'sirga nisbatan "yumshoq" reaksiya berishni pedagogik-psixologik "singdirish" strategiyasi bilan qurollantirish (trening mashg'ulotlari, o'yinlar, qo'shma loyihamalar, laboratoriya tadqiqotlari va boshqalardan keng foydalanish orqali).

Xorijda inklyuziyani tashkil etishga qaratilgan ta'lim jarayonini tadqiq etishda I.I.Loshakova va E.R.Yarskaya-Smirnova inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajriba sabr va bag'rikenglik, izchillik, uzlusizlik, bosqichma-bosqich yondashuv va uni amalga oshirishga kompleks yondashuvni talab qiluvchi uzoq muddatli strategiya bilan bog'liq degan xulosaga keldi. Ularning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtida inklyuziv ta'lim sohasidagi eng ilg'or qonun hujjatlari qatoriga Kanada, Kipr, Daniya, Islandiya, Hindiston, Malta,

Niderlandiya, Norvegiya, Ispaniya, Shvetsiya, AQSh va Buyuk Britaniya kabi davlatlar kiradi[40].

Ko‘pgina xorijiy tadqiqotchilar S.Karrington, J.Kollinz, J.Korbet, K. Xoll, R. Robinson va boshqalar inklyuziv ta’lim g‘oyalari bilan maktab madaniyati o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasida ilmiy mulohazalarni ilgari surgan. Jumladan J.Korbet maktabning madaniy muhiti inklyuziv bo‘lishga da’vo qilgan taqdirda u ma’lum madaniy guruhlarni marginal qismi emas, balki teng deb hisoblashi kerak deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, J.Korbet inklyuziv mакtab madaniyatini shakllanishiga ta’sir etuvchi uchta jihatni ajratib ko‘rsatdilar:

- birinchidan, nogiron o‘quvchilarning qobiliyatları, xususiyatlari nisbatan o‘qituvchilarning chuqur shaxsiy munosabatlari (e’tiqodlari va qo‘rquvlari);

- ikkinchidan, psixofizik rivojlanishi normal bo‘lgan bolalarning nogiron tengdoshlariga nisbatan noto‘g‘ri qarashlari;

- uchinchidan, madaniy ozchilikni tashkil etuvchi bolalar guruuhlarini birlashtirishga bag‘rikenglik[95].

Tadqiqotchi N.A.Livenseva, - Ye.Fitssimons, S.Gerin, Sh.Xardiman, J.Tossebro, K.Vendelborg, R.Bond, E.Castagnera va Kam Pun Vong kabi xorijlik tadqiqotchilarning ishlarida inklyuziv bilan bog‘liq jihatlarini tadqiq etgan holda, mакtab o‘quvchilarida ijtimoiy kompetensiyanı rivojlantirish va imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilganligini ta’kidlagan. Uning nuqtai nazaricha, ijtimoiy kompetensiya ko‘p qirrali bo‘lib - o‘quvchining muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy, hissiy, kognitiv va xulq-atvor qobiliyatları sifatida tushuniladi.

R.Bond va E.Castagnera ta’kidlashicha, inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ni pedagogik qo‘llab-quvvatlash va qo‘llab-quvvatlashning turli usullarini qo‘llash orqali erishiladi. Mualliflarning fikriga ko‘ra, bunday yordamni ko‘rsatishda nafaqat o‘qituvchilar, balki normal psixofizik rivojlanishi bo‘lgan o‘quvchilar ham ishtiroy etishlari kerak, bu odatda "sinf

miqyosida tengdosh repetitorligi" (CWPT) va "yoshlar o'rtasidagi repetitorlik" deb nomlanadi[38].

Bizning nuqtai nazarimizcha "sinfga repetitorlik" har qanday o'quvchini imkoniyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan pedagogik motivasion yondashuv bo'lib, istalgan o'quvchi bir muddat repetitor bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu jarayonga erishilsa o'qituvchilar sinfda samarali hamkorlik va o'zaro ta'sirni osonlashtiradigan to'rt turdag'i munosabatni yuzaga chiqishini ta'minlaydi: talab qilish, qabul qilish, rad etish va yordam berish.

Inklyuziv ta'limni tashkil etishning turli xil qo'llab-quvvatlash usullari va turli strategiyalari zarurligi haqidagi g'oyani ishlab chiqayotib, amerikalik tadqiqotchilar V.Volonino, N.Zigmond birgalikda o'rganish uchun bir nechta variantni taklif qiladilar. Ushbu mualliflarning fikriga ko'ra, inklyuziya muvaffaqiyati quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni maxsus tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchi va kerak bo'lganda ushbu bolalarga hamrohlik qiluvchi yordamchi bilan ta'minlash;
- "alohida o'quv maydoni", bunda imkoniyati cheklangan o'quvchilar turli ta'lim yo'nalishlarini o'zlashtirish uchun bir o'qituvchidan boshqasiga o'tishlari mumkin;
- o'qituvchilardan birgalikda ta'lim faoliyati rejasini tuzishni talab qiladigan "parallel ta'lim". Biroq, shu bilan birga, o'qituvchilar har bir guruh talabalari bilan ishslash strategiyasini belgilaydi - rivojlanish buzilishlarining mavjudligi yoki yo'qligiga qarab;
- "alternativ ta'lim", bu o'qituvchiga kamroq o'quvchilar to'g'ri keladigan sharoitda imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni intensiv o'qitish imkoniyatini nazarda tutadi, boshqa o'qituvchi esa katta guruh bilan ishlaydi;
- "jamoaviy o'qitish", bunda individual darslarni boshqaradigan o'qituvchilar almashadilar[97].

Fransuz olimi S.Gilmanning yondashuvi qiziq bo'lib, u inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan o'quvchilarni oddiy sinflarning barcha tadbirlariga

integrasiya qilishga qaratilgan va inklyuziv ta’lim sharoitida loyihaga yo’naltirilgan yondashuvdan foydalanish mutlaqo mumkin, deb hisoblaydi.

S.Gilman inklyuziv ta’lim quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerakligini ta’kidlaydi:

- bola shaxs, har qanday shaxs hurmatga loyiqdir;
- har bir bola teginish, harakat qilish, ko‘rish va tinglash orqali o‘rganadi, biroq bunda uni cheklab bo‘lmaydi;
- rivojlanishga boshqalar bilan faol munosabatda bo‘lish orqali yo‘l qo‘yilishi kerak[18].

Ushbu yondashuv doirasida o‘qitishning asosiy usuli sifatida foydalanish bolaning qiziqishlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda vazifalarni shakllantirishga imkon beradi, shuningdek, ushbu jarayonda individual va guruhli ta’limni amalga oshirishga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, bizningcha tadqiqotchi S.Gilman barcha bolalar uchun bir xil ta’lim maqsadlari bilan ushbu maqsadlarga erishishning individual usullari kerak degan, fikrni ilgari surib bolani rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish lozimligini ta’kidlagan.

Tadqiqochilar A.Broderik, X.Mehta-Parex va D.Kim Reid inklyuziv ta’limni qabul qilish va puxta rejalashtirish kerakligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, inklyuziv ta’limni qabul qilish o‘qituvchilar har bir o‘quvchini qadr-qimmatini tushunishida yotadi ta’kidlagan holda, ta’lim jarayoniga inklyuziyani samarali rejalashtirishga nafaqat adekvat jismoniy va ijtimoiy-emotsional muhit yordam beradi degan xulosaga kelishadi. Shuningdek, muhim komponent bu imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar uchun ko‘rsatmalarini farqlashdir[94].

Ko‘pgina xorijiy tadqiqotchilar inklyuziv ta’limning asosiy muvaffaqiyati individual o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ekanligini ta’kidlaydi.

Bu borada tadqiqotchilar J.Kurt va A.M.Masterjorjlarning fikr – mulohazalari e’tiborga molik bo‘lib, ular nuqtai nazaricha individual o‘quv dasturi inklyuziya kontekstida kuchli vositadir, lekin shu bilan birga, imkoniyati cheklangan bola

(o‘quvchi)larda akademik ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishni cheklab qo‘ymaslik kerak[94].

Tadqiqotchi N.A.Livenseva Kanada va Amerikalik M.Forest, M.Giangreko, E.Lusthaus, J.Pirinpoint, J.Putnam va boshqa tadqiqotchilarining inklyuziv ta’lim bilan bog‘liq ilmiy mulohazalarini o‘rgangan. Uning nuqtai nazaricha, yuqorida qayd etilgan Kanada va Amerikalik tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan MAPS (Making Action Plans, ingliz tilidan - “harakat rejalarini tizimli ishlab chiqarish”) texnologiyasi imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar uchun inklyuziv ta’limni rejalashtirish imkonini beradi. Bunga ishtirokchilar faoliyatini rejalashtirish orqali erishiladi, ya’ni ta’limning barcha ishtirokchilari (ota-onalar, o‘qituvchilar, o‘quvchilar) ongli ravishda faoliyatlarini muvofiqlashtirish talab etiladi[38].

Bizning nuqtai nazarimizcha, bu texnologiya nafaqat inklyuziv ta’limni tashkil etishda samarali natijani qayd etadi, balki ta’limni individuallashtirishni ham ta’minlash imkonini beradi.

Shuningdek, Kanada va Amerikalik M.Forest, M.Giangreko, E.Lusthaus, J.Pirinpoint va J.Putnam tomonidan taklif etilgan PATH (Planning Alternative Tomorrows with Hope) (Umid bilan muqobil ertangi kunlarni rejalashtirish) muqobil rejalashtirish texnologiyasi ham rivojlanishida jiddiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarga amaliy yordam berishga qaratilgan sakkiz bosqichli algoritmdir:

- bolaning yetakchi orzusi va xohishini aniqlash;
- maqsadni belgilash;
- maqsadga erishish uchun mavjud imkoniyatlarni baholash;
- ishtirokchilarni aniqlash;
- natijalarni baholash mezonlarini tanlash;
- birinchi qadamlarni qo‘yish;
- oyda bir marta bolaning muvaffaqiyatini baholash;
- 3 oydan keyin yutuqlarni baholash[38].

Tadqiqotchi N.N.Malofeev, inklyuziv ta’lim amalga oshirishga yo‘naltirilgan COACh texnologiyasiga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Uning nuqtai nazaricha COACh–texnologiyasi (Choice of accommodation for children -bolalar

uchun turar joyni tanlash) og‘ir va ko‘p rivojlanish nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitishda qo‘llaniladi. Ushbu texnologiya bolalarni o‘z-o‘ziga xizmat qilishni o‘rgatish va kundalik hayot sharoitida bolaga individual yordamni aniqlashga asoslangan.

Ushbu texnologiyalarning barchasida umumiy pozitsiya mavjud - bu nogironligi bo‘lgan har bir bolaning shaxsiyatining sog‘lom tomonlariga tayanish va uning individual rivojlanish traektoriyasini rejalashtirishga yo‘naltirilgan.

Inklyuziv ta’limni tashkil etishning xorijiy texnologiyalarini strategiyalarini tahlil qilar ekanmiz, shuni ta’kidlash kerakki, uning turli mamlakatlarda rivojlanishi imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning ta’lim olish huquqini amalga oshirishga qaratilgan fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va manfaatdor tomonlarni muhokama qilishdan kelib chiqqan, inklyuziyani tashkil etish muammosi doirasidagi masaladir[39].

Tadqiqotchi I.M.Bgajnokova nuqtai nazaricha inklyuziv ta’lim samaradorligi, -bu imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni oqilona tabaqlashtirilgan tanlashdir. Uning ilmiy mulohazasiga ko‘ra imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning hammasi ham normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olishni maxsus ta’limdan afzal deb bilishmaydi[9].

Imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi) uchun ta’lim yo‘nalishini tanlash, ta’lim shaklini va umumiy ta’lim muhitiga kiritish darajasini aniqlash masalasi psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan bolaning ehtiyojlari, rivojlanish xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal qilinishi kerak. Bu jarayonda imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ni tarbiyalayotgan ota-onalarning bevosita ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar S.V.Alyoxina, E.N.Kutepova, E.I.Leongard, E.V.Samsonova va A.Yu.Shemanova diametal qarama-qarshi va juda ziddiyatli pozitsiyani ilgari surgan holda imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ning bog‘cha yoki umumta’lim maktabida o‘qishi uchun “tayyor” bo‘lishi shart emasligini ta’kidlaydilar[31].

Inklyuziv ta'lim tamoyillariga ko'ra, bolani qadr-qimmati uning qobiliyati va yutuqlariga, shuningdek, sog'lig'iga bog'liq emas. Biroq, individual ta'lim yo'nalishi va shaklini belgilashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning alohida ta'lim ehtiyojlari mavjudligini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bu, bir tomondan, sog'lig'ida muammolar bo'lgan bolaning shaxsiy rivojlanish traektoriyasini to'g'ri qurishni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, sinfdagi barcha bolalarni ta'lim va tarbiyasi uchun sharoit yaratadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ayrim imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar inklyuziv emas, balki maxsus (korreksiya) muassasasida sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega.

Inklyuziv ta'limning rivojlanish tendensiyalarini o'rganib chiqar ekanmiz, jahon amaliyotida mavjud bo'lgan ikkita tashkiliy va ma'muriy modeli borligiga e'tibor qaratishni ma'qul deb o'ylaymiz.

Birinchi model bu "Absorbsiya", ikkinchi "Birgalikda yashash" model. Rossiya va Amerika Qo'shma Shtatlar "Absorbsiya" modeli joriy etilgan bo'lib, ta'lim integrasiyasining asosiy prinsipi - ta'lim joyini tanlash erkinligini buzadi. Yevropa bir qator davlatlari va Yaponiya ta'lim integrasiyasining asosiy g'oyalarini buzmaydigan, ommaviy va maxsus maktablarda teng darajada qulay ta'lim sharoitlarini ta'minlaydigan - "Birgalikda yashash" modelni joriy qilgan[46].

Bizning fikrimizcha, asosiy e'tiborni maxsus ta'limdan umumiyligi ta'limga o'tkazish va maxsus (korreksion) ta'lim muassasalari sonining qisqarishi tendensiyasini nomuvofiqligi, hamda rejalilik va izchillikni yo'qligidir. Bu, odatda, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ga ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning o'zgaruvchanligini o'z ichiga olgan inklyuziv ta'lim g'oyasini obro'sizlantiradi.

Tadqiqotchi N.N.Malofeevning ta'kidlashicha, defektologiya sohasidagi yetakchi olimlar turli xil psixofizik nuqsonlari bo'lgan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni o'qitishni uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqdi. Bundan tashqari, maxsus (tuzatish) ta'lim muassasalari bunday bolalar bilan ishlashni tashkil etishda boy tajribaga ega va shuning uchun inklyuziv jarayonlarga hamkorlik qilish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bu maxsus (karreksion) maktablari va ixtisoslashtirilgan bolalar bog'chalariga yangi maqom, resurs markazi bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotchilar Ye. Yu.Frolova va Ye.V.Samsonova nuqtai nazaricha hududiy maxsus ta’lim idoralari umumiy turdag'i ta’lim tashkilotlariga qo’shilish uchun resurs ta’mintoning asosiy mexanizmi - moddiy, texnik, dasturiy, uslubiy va kadrlar akkumulyatorlarining bir turi bo‘lib, mavjud ta’lim muassasalari negizida tashkil etiladi va har bir ta’lim hududida faoliyat yuritadi. Ko‘pgina tadqiqotchilarining fikricha, bunday tashkilot inklyuziv ta’limni amalga oshiruvchi barcha muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish va qo’llab-quvvatlashni ta’minlaydi[39;56;77].

Inklyuziv ta’limni rivojlantirishning salbiy tendensiyalari mahalliy pedagogik amaliyotga inklyuziyani xorijiy modellarini rasmiy ravishda o’tkazishni o‘z ichiga oladi. Bunday jarayon muayyan hududning resurslari va imkoniyatlarini, shuningdek, milliy ta’lim siyosatini asosiy yo‘nalishlarini hisobga olishga imkon bermaydi.

Tadqiqotchi N.N.Malofeev ta’kidlaganidek, inklyuziv ta’limning mahalliy amaliyotini rivojlantirishni istiqbolli yo‘nalishi imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni erta aniqlash va ularga o‘z vaqtida zaruriy yordamini ko‘rsatish tizimini tashkil etishdan iborat[39].

Bizning fikrimizcha, psixologik-pedagogik korreksianing kompleks dasturlarini amalga oshirish imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni sifat jihatidan malakali inklyuziv ta’limga yo‘naltirish imkonini beradi.

Inklyuzivlik g‘oyalarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy turdag'i ta’lim muassasasida integrasiyalashgan bolani psixologik va pedagogik qo’llab-quvvatlashdir. Bizningcha, fanlararo jamoa faoliyati, jumladan, o‘qituvchi – psixolog, defektolog o‘qituvchi, nutq terapevti, shuningdek nogiron bolani o‘qitish bilan shug‘ullanadigan boshqa pedagogik xodimlar faoliyatini yanada muvofiqlashtirish taqozo etiladi.

Bunday jamoaning vazifalari imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning alohida ta’lim ehtiyojlarini aniqlash, individual ta’lim yo‘nalishlari, rejalarini va o‘quv traektoriyalarini ishlab chiqish, shuningdek, bolalarni rivojlanish dinamikasini kuzatishni o‘z ichiga olishi zarur.

Alovida ta'kidlash kerakki, ilmiy tahlillar natijasiga tayanib aytishimiz mumkinki, barcha tadqiqotchilar inklyuziv ta'lim sharoitida ishslash uchun o'qituvchilarni maxsus tayyorlash zarurligiga e'tibor qaratgan. Bunday o'qitish qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini individuallashtirish bilan bog'liq konseptual o'zgarishlarni talab qiladi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar e'tiborni inklyuziv ta'lim modelini amalga oshirish o'qituvchining doimiy, tizimli kasbiy va shaxsiy o'sishini nazarda tutadi. Bunga inklyuziv yondashuvni amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlar o'rtasida PTIK doirasida aloqalar tizimini o'rnatish orqali erishish mumkin.

Xulosa o'rnida ta'kidlashimiz mumkinki, mavzuga oid ilmiy manbalar va tadqiqotchilarning ilmiy mulohazalarini tahlil qilib, biz xorijda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil etgan holda, jamiyatimizda inklyuziv ta'limni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim deb o'ylaymiz:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ni qabul qilishga asoslangan inklyuziv madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilganlik inklyuziv falsafasining umummiliy tushunchasini ishlab chiqish;
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ni qo'llab-quvvatlash uchun turli texnologiyalar va strategiyalarni inklyuziv amaliyotda qo'llash;
- ta'limning barcha ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ga maksimal darajada yordam berish uchun ota-onalarni inklyuziv ta'lim jarayoniga kiritish;
- inklyuziv ta'lim sharoitida ishslash uchun o'qituvchilarni maxsus tayyorlash;
- inklyuziv maktabni PTIK doirasida hamkorlari va manfaatdor ijtimoiy tashkilotlar tomonidan, moddiy ma'naviy hamda psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ni ta'lim jarayoniga jalb etish uchun ta'lim dasturini individuallashtirish va ularni o'qitishning individual rejasini ishlab chiqish.

### **Birinchi bob bo‘yicha xulosa.**

Birinchi bobda inklyuziv ta’lim klasteri sharoitida o‘quvchilar hayot xavfsizligini ta’minlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlariga doir masalalarni hal etilishi va ta’lim mohiyatini belgilash, hamda ijtimoiy-pedagogik hodisa fenologiyasining mohiyatini olib berib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Inklyuziv ta’lim pedagogik hodisa sifatida ta’lim jarayonini PTIK doirasida tashkil etishni taqozo etadigan jarayon bo‘lib, barcha imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar jismoniy, aqliy va boshqa rivojlanish xususiyatlaridan qat’iy nazar, umumiy ta’lim tizimiga kiritiladi va sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘qiydi.
2. Inklyuziv ta’lim ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatda imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larga nisbatan alohida munosabat madaniyatini shakllantirib, ijtimoiylashtirishni ta’minlaydigan va o‘zini o‘zi anglashini yuzaga chiqaradigan ta’lim makonini qulay shart-sharoitlarini yaratadi.
3. Kishilik jamiyatida inklyuziv ta’limning metodologik asoslari haqida yagona qarash mavjud emasligi va shuningdek, konstruktiv yondashuv ustuvorligi bu ta’limni PTIK doirasida tizimli va strategik rivojlanayotgan hodisa sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.
4. Inklyuziv ta’limni rivojlanishi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, jamiyatda inson huquqlari va teng imkoniyatlar tushunchalarining rivojlanishi, kamsitishlarga qarshi harakat va imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni ta’lim olishga bo‘lgan ijtimoiy ongini o‘zgarishiga olib keladi.
5. Xorijiy inklyuziv nazariya va amaliyot tajribasini keng va har tomonlama o‘rganish, jamiyatimizda bu sohani zamonaviy modelini joriy etishga asos bo‘lib xizmat qiladi.
6. Inklyuziv ta’limning xorij tajribasi biz tomonimizdan taklif etilayotgan “to‘siksiz makon” konsepsiyasini amalga oshirishda metodologik asos, hamda ijtimoiy pedagogik va psixologik zamin bo‘lib xizmat qiladi.

## **II.BOB. IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR HAYOT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI**

### **2.1. PTIK doirasida inklyuziv kasbiy tayyorgarlik darajani tashkil etish va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash modeli**

Imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning xavfsiz hayotga tayyorgarligini shakllantirish jarayonini ta'lim klasteri sharoitida o'rghanish holati va uning tarkibiy qismlari shuni ko'rsatdiki, bunday tayyorgarlikni shakllantirishda pedagogik-psixologik davomiy va uzlusiz ishlar olib borilishi taqozo etilar ekan. Shu nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, bu muammoni hal qilish inklyuziv ta'lim jarayonini modellashtirish bilan bog'liq zamonaviy pedagogik o'ziga xoslikni aks ettiradi.

Bu borada tadqiqotchi V.P.Bespalkoni ilmiy mulohazalari ahamiyatli bo'lib, uning nuqtai nazaricha bugungi kunda modellashtirish usuli vizualizasiyani eng yuqori va maxsus shakli sifatida qaraladi. Bu tadqiqotchiga ob'ektni o'zini emas, balki uning ba'zi bir analoglarini ko'rsatishga imkon beradi. Shu bilan birga, vositalashtirilgan bilish "ma'lum jihatdan o'rghanilayotgan ob'ektni almashtirishga va u haqida yangi ma'lumotlarni taqdim etishga qodir bo'lgan tabiiy yoki sun'iy tizimlar yordamida" amalga oshiriladi[12], degan g'oyani ilgari surgan bo'lsa, tadqiqotchi V.A.Shtoff esa, model – bu o'rghanish ob'ektini aks ettiruvchi yoki qayta ishlab chiqaruvchi, hamda ob'ekt haqida yangi ma'lumot beradigan tarzda almashtirishga qodir bo'lgan aqliy ifodalangan va moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizimdir, degan ilmiy qarashni ilgari surgan[91].

Tadqiqotchilar A.M.Tomson va Dj.L.Perri tomonidan model tushunchasiga doir ko'plab ilmiy mulohazalar o'rghanilgan bo'lib, "konseptual model" tushunchasi mohiyatini yoritishga uringan va uni shakllantirilgan global obraz sifatida e'tirof etib, mavjud jarayonlarni turli qismlarini butun bilan bog'lash, hamda shunga mos ravishda samarali harakat qilish qobiliyati – degan gipotezani ilgari surgan[96].


Ushbu modellashtirish mohiyatining nazariy asoslaridan kelib chiqqan holda biz ilmiy tadqiqotimizda inklyuziv ta'lim klasteri muhiti, hayot xavfsizligi masalalarini quyidagicha ifodalaymiz:

- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning hayot xavfsizligini ta’minlash jarayoni, uning tuzilishi, asosiy xususiyatlari, funksiyalari va aloqalarini aniqlash;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larining inklyuziv ta’limga tayyorgarligi, ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar, hayot xavfsizligi mezonlarini muvofiqlashtirish va ushbu tizimni pedagogik-psixologik jihatdan tahlil etish;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning hayot xavfsizligini shakllantirish jarayoni, hamda ijtimoiy omillari, istiqbollari va oqibatlarini ilmiy asoslash;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning hayot xavfsizligini ta’minlashda kasbiy ko‘nikma va malakasini shakllantirish omillari hamda ijtimoiy integrasiyasini shakllantirish.

Ushbu tadqiqot ishimizda imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni hayot xavfsizligini inklyuziv ta’lim jarayonida ta’minlashdan iborat bo‘lib, u kompleks tizimli xususiyatga ega, hamda ijtimoiy-madaniy, umumiy pedagogik, psixologik, uslubiy va shaxsiy-faoliyat komponentlarini birlashtiradi. (1-rasm).

Imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni inklyuziv ta’limga tayyorlash, hamda ularni PTIK doirasida umumiy ta’limni o‘zlashtirishi uchun korreksion dasturlar asosida, istiqbolda jamiyatni faol a’zosi bo‘lishi uchun jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga ham integrasiyasini kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirgan holda yo‘naltirishimiz maqsadga muvofiq.

Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning, sotsializasiya jarayoniga ta’sir etuvchi kasbiy tayyorgarlik darajalari bilan bog‘liq malaka va ko‘nikmalarning yetishmasligi bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu kabi ijtimoiy masalalarni oldini olish maqsadida biz PTIK doirasida inklyuziv ta’lim jarayonida quyidagi modelni taklif etamiz:



1-rasm. Imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni PTIK doirasida inklyuziv kasbiy tayyorgarlik darajalarini tashkil etish va ijtimoiy xavfsizligini kafolatlash modeli.

Bu model PTIK doirasida imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larining inklyuziv kasbiy tayyorgarlik darajasini tashkil etish, hamda ijtimoiy xavfsizlik omillari masalalariga ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan tahliliy yondashuvni taqozo etib, quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozimligiga urg‘u beradi:

- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larga kasbiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi tibbiy-ijtimoiy ekspertiza mutaxassislari tomonidan ularni ta’lim muassasalariga qabul qilishidagi to‘g‘ri va qarshi ko‘rsatmalar to‘g‘risida ma’lumotlar berishi;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning inklyuziv ta’lim muassasalariga qabul qilish uchun ko‘rsatmalar, hamda ularning aksariyati tanlangan kasblarga aqliy va jismoniy jihatdan javob berish yoki javob bermasligi;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar tomonidan tanlagan kasblar istiqbolda ularning hayot xavfsizligiga tahdid jihatlarini ko‘lami, ya’ni ruhiy va jismoniy jihatdan yuqori bosim berib turishi;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar tanlagan kasblari ularni sotsializasiya jarayonida xavf soluvchi omillari;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar tomonidan tanlagan kasblarni jamiyat sohalari bilan integrasiyasini bloklash xavfi yoki jismoniy va ruhiy salomatligiga ijtimoiy xavfi;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar tomonidan tanlagan kasbini ularning imkoniyati va qobiliyati bilan bog‘liq xususiyatlari, ya’ni shaxs oldiga kasb tomonidan qo‘yiladigan talablarga qay darajada javob berishi;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar kasbiy faoliyatları ularni shaxs sifatida shakllanishi va ishning keyingi istiqbollar bilan bog‘liq omillari;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi) uchun ta’lim muassasa va korxonaning psixosomatik qobiliyatlari, maxsus binolar infratuzilmasi, o‘quv joylari uchun maxsus jihozlar va maxsus o‘qitish usullari hamkor va manfaatdor tashkilotlar bilan har tomonlama o‘rganilishi, hamda inklyuziv maqsadlari uyg‘unligi ta’minlanishini taqozolaydi.

Inklyuziv ta’limga muhtoj imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni ta’lim muassasalariga qabul qilishda cheklovlar mavjudligi va inklyuziv kasbiy

tuzilmalarining hududiy tarmog‘i rivojlanmaganligi sababli nogironlar faoliyat olib borishi mumkin bo‘lgan kasblar doirasi to‘liq zamon talabi darajasida klassifikasiyalanmagan. Shuningdek, aksariyat hollarda, bu ularning doimiy yashash joylaridan boshqa hududlarga majburiy megarsiyasini yuzaga keltirib chiqarib, ijtimoiy-psixologik ko‘rsatkichlar nuqtai nazaridan ularning ruhiy va jismoniy salomatligiga xavf darajasini oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Bu jarayon ko‘rish qobiliyati zaif bo‘lgan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar uchun hayot xavfsizligi darajasini ortishiga, hamda ular bilan turli baxtsiz voqealarni sodir bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar uchun o‘quv jarayoni va kasbiy faoliyatini PTIK doirasida ko‘rib chiqish, ijtimoiy yechim bo‘lib qolmasdan, ular faoliyatini muvofiqligini kafolatlagan holda hayot xavfsizligi masalalarini ham ta’minlaydi.

Imkoniyati cheklangan, ya’ni ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bola (o‘quvchi)lar hayot xavfsizligi va profotbor va proforentasiya ishlarining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lmog‘i lozim:

- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni inklyuziv ta’limga jalb etish, ishlab chiqarish turlari, mehnat bozorining holati, iqtisodiyotning malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlari, kasblarni rivojlantirish mazmuni va istiqbollari, shakllari va shartlari bilan tanishtirish;

- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar uchun inklyuziv ta’lim va kasbiy faoliyat shart-sharoitlarni yaratish, hamda mehnat faoliyati jarayonida kasbiy o‘sish va o‘zini o‘zi takomillashtirish imkoniyatlarini ta’minlash;

- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning individual xususiyatlarini o‘rganish asosida kasbiy o‘zini o‘zi anglash va rivojlantirishda faoliyatini maqsadli boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni kasbiy o‘zini o‘zi belgilashni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash;

- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni doimiy kasbiy ta’lim va malaka oshirish imkoniyatlarining hududiy va mintaqaviy manbalarini PTIK doirasida tashkillashtirish;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni muntazam yangilanib turuvchi kasbiy va huquqiy ma’lumotlar bilan ta’minlab turishni individual elektron dasturlarini innovation avlodini yaratish, hamda kasbiy faoliyatning xususiyatlari va koordinatalari majmuasini ishlab chiqish;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larga inklyuziv ta’lim va jamiyat kasbiy sohalari bilan integrasiyasi jarayonida kasbiy o‘zini o‘zi belgilash uchun psixologik va tibbiy, ma’naviy va ijtimoiy xizmatlar tizimini muvofiqlashtirish;
- jamiyatda inklyuziv ta’lim va uning ommalashuvi nuqtai nazaridan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ni kasbiy faoliyatiga doir (istiqbolda kasbiy raqobat nuqtai nazaridan) nomzod shaxsiga qo‘yadigan kasbiy talablar va mezonlar xususida ma’lumotlar berib borish, hamda mutaxassis sifatida o‘zini takomillashtirishga yo‘naltirish.

Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va pedagogik-psixologik yondashuv imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ni PTIK doirasida muvofiqlashtirilgan inklyuziv ta’lim tizimini o‘qitish va tarbiyalash strategiyasi bo‘lib, bitiruvchilarining ijtimoiy muvaffaqiyatiga, hamda, ularni tashqi dunyo bilan o‘zaro integrasiyasiga qaratilgan. Inklyuziv ta’limdagi korreksion o‘qitish va tarbiya jarayonida imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)da quyidagi qadriyatlarni shakllantiradilar:

- o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy muhitga moslashish;
- barcha shaxsga xos bo‘lgan har xil faoliyat turlarini yashab turgan atrof-muhitga shaxsiy munosabat qaror topdirib, g‘amxo‘rlik hissini barqarorlash;
- individual ijodiy salohiyatini rivojlantirish;
- o‘z imkoniyatlariga to‘g‘ri javob berish va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- umumta'lim mактабдан со'нг о'рта maxsus va олий о'кув yurtlarida o'qishni o'zlashtirish;

- o'zi davom ettirish istagini qaror toptirish;

- sotsializasiya jarayoniga ta'sir etuvchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

Yuqoridagi ijtimoiy-psixologik ko'nikma va malakalarni imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni shaxsida shakllantirish, ularning hayot xavfsizligini ta'minlashda muhim ustuvor masalalardan bo'lib, istiqbolda inklyuziv ta'lim faoliyatining asosiy natijasi sifatida o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorgarligi, eng murakkab ijtimoiy muammolarni hal qilish va zamonaviy jamiyatda munosib o'rин egallashida katta xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, inklyuziv ta'lim jarayoni PTIK bilan muvofiqlashgan holda imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni kasbiy ta'limga oid bilimlari, mehnat muhiti, ularning kontrendikasiyasi (amalda qo'llash mumkin bo'lman holatlar) bilan chambarchas bog'liq omillarni ham namoyon etishi kerak bo'lib, istiqbolda bu boradagi mavjud muammolarni mas'ul va manfaatdor tashkilotlar bilan oldini olish masalalari yuzasidan strategik loyihalarni ishlab chiqish, hamda ta'lim jarayoniga olib kirishi zarur. Shuningdek, bizning nuqtai nazarimizda jamiyatimiz inklyuziv ta'lim jarayonida tahsil olgan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni istiqbolda kasbiy faoliyatiga tegishli bo'lган kasb professiogrammasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'lardi degan fikrdamiz.

Bu borada tadqiqot olib borgan mutaxassislarni ilmiy izlanish va mulohazalari inklyuziv ta'lim jarayonida tahsil olgan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni kasb professiogrammasini ishlab chiqish lozim degan ilmiy mulohazamizni yanada tasdiqlaydi.

Tadqiqotchi M.I.Zemsova inklyuziv ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni kasbga o'rgatish va proforentasiya kontrendikasiyasi (amalda qo'llash mumkin bo'lman holatlar)da quyidagilarga e'tibor qaratish lozim deydi:

- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni eshitish analizatoriga zararli ta'sir ko'rsatadigan sharoitlarda bajariladigan kasb va ishlar;

- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni teginish tuyg‘usiga zararli ta’sir ko‘rsatadigan (yuqori haroratdagi sovuq va issiq sharoitda bajariladigan, qo‘llarning terisini korroziyaga olib keladigan suyuqliklarni doimiy ishlatish) kasb va ishlar;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni barmoqlarning teri yuzasiga shikast yetkazadigan materiallar va asboblardan foydalanishi bilan bog‘liq kasb va ishlar;
- imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni markaziy asab tizimiga ta’sir o‘tkazadigan (zaharli moddalar bilan bog‘liq, benzin, simob, qo‘rg‘oshin, uglerod sulfidi) kasb va ishlar;
- ishni bajarish jarayonida doimiy harakat faoliyatini talab etadigan kasb va ishlar;
- mashinalar yoki dastgohlarni tez-tez o‘z-o‘zini sozlash, hamda birinchi texnik xizmat ko‘rsatish malakasini talab etadigan kasb va ishlar;
- ish paytida va boshqa ishlab chiqarish binolarida harakatlanish paytida shikastlanish xavfi bilan bog‘liq kasb va ishlar[28].

Istiqlolda biz inklyuziv ta’lim jarayonida tahsil olgan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni ish faoliyatiga tegishli maxsusus kasb professogramasini ishlab chiqmasak, ularning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi ijtimoiy xavflar yuzaga kelishi mumkin:

- nostandard kasblarda ishlashi natijasida sog‘liq bilan bog‘liq muammolarni ortishi;
- kuchli psixologik toliqish va ijtimoiy moslashuv jarayonida dezadaptasiyaning yuzaga kelishi;
- ommabop infratuzilma va ijtimoiy ob’ektlar, hamda ta’lim muassasalari va boshqa ob’ektlardan foydalanish imkoniyatini cheklanganligi natijasida stress va depressiyani yuz berishi;
- ularni ishga qabul qilishda ish beruvchilar tomonidan diskriminasiya jarayonini yuz berishi;
- ishga joylashish jarayonida psixologik travmalar olishi;

- taklif etilayotgan bo'sh ish o'rinalar ularni jismoniy va aqliy zo'riqishini oshirishi, hamda muvofiqlashtirilmashligi;

- tabiiy ehtiyoj bilan bog'liq holatlarda doimiy ravishda boshqalar ko'magiga muhtojlikni ortishi va korxona ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi;

- kasbiy faoliyatida motivasiyasini yo'qolishi va tushkunlikka tushib qolishi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inklyuziv ta'lim jarayoni PTIK bilan muvofiqlashgan holda imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning ijtimoiy hayot xavfsizligini shakllantirish yuzasidan ishlab chiqqan model o'zaro bir birini taqozo etadigan bir qator tarkibiy qismlarni, jumladan maqsad, mazmun, jarayon va natija bilan bog'liq omillarni o'z ichiga olgan.

Ushbu model, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning ijtimoiy hayotga moslashuvini rivojlantirishga hissa qo'shib, shaxsiy-kasbiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, kasbiy faoliyat ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishi hamda o'zini o'zi rivojlantirgan holda sotsializasiya jarayonini kafolatlaydi:

Bunda:

- ijtimoiy xavfsizlikka yo'naltirilgan kasbiy komponentlarni o'zlashtirish va egallash omillari ko'rsatilgan;

- sohalararo integrasiya manbalari yoritilib, sotsializasiya motivlari belgilangan;

- ota-onal, o'quvchi va mas'ul tashkilotlarni faoliyati, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ni ijtimoiy xavfsiz hayotga yo'naltirishda maqsadga muvofiqligi belgilangan;

- ijtimoiy sotsializasiya bilan bog'liq holda imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ni kasbiy "falokat" va "halokat"dan olib chiqish yo'llari belgilangan;

- imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni kasbiy sohada va hayotdagি ijtimoiy xavflarni o'zini o'zi rivojlantirish va maqsadlar sari harakatlanish asosida bartaraf etish motivasiyasi aniqlashtirilgan.

Ushbu model bugungi jamiyat uchun konseptual ahamiyatga ega bo'lib, oddiy va sodda komponentlarni o'zi ichiga olgan, hamda, imkoniyati cheklangan bola

(o‘quvchi)larning ijtimoiy hayot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan (inklyuziv, individual, aksiologik, motivasion, sensorli faollashtirish, yo‘naltirish, muvofiqlashtirish) pragmatik yondashuvlarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Ta’lim jarayonida ko‘r va zaif ko‘rish uchun ijobiy motivasiyani ta’minlashga asoslangan protsessual komponentning mazmuni maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan o‘qitish usullari, vositalari va shakllarini o‘z ichiga oladi.

Bizning nuqtai nazarmizcha ushbu model imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning ijtimoiy hayot xavfsizligi masalalarida ijobiy dinamikani rivojlantirishga asoslangan bo‘lib, aniq yondashuv, maqsadli faoliyat turi, ko‘nikma va malakalar uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan kasbiy faoliyatga muvofiqligini ta’minlagan holda ijtimoiy xavfsiz xatti-harakatlar omili bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan model mazmun-mohiyatiga tayangan holda biz inklyuziv ta’limida imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning xavfsiz hayotga tayyorligini shakllantirish texnologiyasini quyidagicha amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

*-birinchidan*, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni kasbiy tayyorlash jarayonida eng muhim yondashuv va tamoyillarni PTIK doirasida amalga oshirish;

*-ikkinchidan*, - inklyuziv ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ni kasbiy faoliyatga yo‘naltirishda korxona va tashkilotlar bilan integrasiyasini amalga oshirish modelini milliy mentalitet va zamonaviy omillar doirasida ishlab chiqish;

*-uchinchidan*, - imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ni xulq-atvoriga salbiy ta’sir etuvchi ob’ektiv va sub’ektiv omillarni ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlash, hamda bloklash mexanizmini amalda joriy etish;

*-to‘rtinchidan*, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning xavfsiz hayot sohasiga doir kognitiv qiziqishlarni rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik-psixologik o‘quv materiallarni, ularning nogironlik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda individual zamonaviy manbalarini yaratish, hamda amaliyotda qo‘llash.

-*beshinchidan*, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning ijtimoiy hayot xavfsizligini ta’minlash, davlat va jamiyatning ustuvor masalalaridan birga aylantirilishi, hamda bunga doir maxsus qonunlarni ishlab chiqilishi.

-*oltinchidan*, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning ijtimoiy hayot xavfsizligini ta’minlashda jamoatchilik nazoratini o‘rnatilishi va xalqaro huquq normalarini ratifikasiya qilish.

## **2.2. Inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilarini xavfsiz hayotga undash motivini rivojlantirish**

Inklyuziv ta’lim muhitida hayot xavfsizligi muammosini tahlil qilishda, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning xavfsizligiga bo‘lgan munosabatni insoniylashtirish masalasi kun tartibiga chiqadi.

Bu o‘rinda birinchi navbatda, uni saqlash va mustahkamlash uchun davlat va jamiyat tomonidan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larda motivasiyaning yo‘qligi va xavfsizlik o‘rtasidagi nomuvofiqlik faktini hisobga olish kerak. Ushbu nomuvofiqlikning sababi shundaki, xavfsizlik inson tomonidan so‘zsiz berilgan narsa sifatida qabul qilinadi, unga ehtiyoj, garchi tan olingan bo‘lsa-da, faqat uning aniq tanqisligi sharoitida seziladi. Shu munosabat bilan, hayot xavfsizligiga bo‘lgan ehtiyojni uning yomonlashishi yoki yo‘qligi sababli aktivlashtirish, shaxs jismoniy va ruhiy farovonligi uchun samarali g‘amxo‘rlikni faollashtiradi degan ilmiy farazni ilgari surishimiz mumkin.

Tadqiqotchi S.L.Rubinshteyn bu xatti-harakatlarning sababini quyidagicha tahlil etadi:

- birinchidan, navbatda, inson ehtiyojlarini qarama-qarshi tabiatida mavjud bo‘lgan, o‘ziga xos passiv-faol xarakterning mavjudligi;
- ikkinchidan, inson tanasining keng adaptasiya-kompensator imkoniyatlari;
- uchinchidan, faoliyat va xulq-atvor uchun ichki motivasiyalar tizimi sifatida insonning xavfsizlikka bo‘lgan munosabatini ham belgilaydigan shaxs motivation muhitini o‘ziga xos xususiyati[50].

Bizning nuqtai nazarimizcha uchinchi holat, shaxsning xavfsiz xulq-atvori motivlarini o‘ziga xos, motivasion muhiti va xususiyatlari xavfsizlikka adekvat munosabatda bo‘lishni asosiy sharti hisoblanadi.

Anglangan faoliyat negizida qurilgan tarbiya va individual tajriba mahsuli bo‘lgan motivlar tizimi, xavfsizlikka bo‘lgan munosabat, umuman shaxsning motivasion muhiti, elementi sifatida nafaqat unga bo‘lgan ehtiyojni faollashtiradi, balki xavfsiz xatti-harakatlarni tegishli yo‘l bo‘ylab boshqaradi.

Imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning xavfsiz hayotga tayyorgarligini shakllantirishga hissa qo‘sadigan eng muhim tarkibiy qismlardan biri bu shaxs faoliyatini rag‘batlantirish bo‘lib, uni ijtimoiy – psixologik omillariga e’tibor qaratish lozim.

Bu o‘rinda motiv so‘zining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratish lozim. Motivasiya lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, - harakatga undash, inson o‘z ehtiyojlarini faol ravishda qondirish qobiliyati, hamda xulq-atvorini boshqaradigan, uning yo‘nalishini, tashkiliyligini, faolligi va barqarorligini belgilovchi fiziologik va psixologik dinamik jarayondir[57].

Psixologik-pedagogik adabiyotlar (L.I.Bojovich, I.A.Zimnyaya, A.N.Leontev, Ye.P.Ilin, S.L. Rubinshteyn, Ye.V.Sidorenko, X.Xekxauzen va boshqalar) tahliliga ko‘ra motivasiya murakkab va ko‘p qirrali kategoriya sifatida ko‘rib chiqiladi, bu uning mohiyatini, tabiatini va tuzilishini tushunishga yondashuvlarni turlichaligi bilan izohланади[13;29;37;30;50;61].

Motivasiya muammosining rivojlanishi, birinchi navbatda, inson faoliyati manbalarini, uning faoliyatiga turtki beruvchi kuchlarini tahlil qilish bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan dastlab motivasiya faoliyat manbasi va rag‘batlantirish tizimi sifatida talqin qilinadi.

Motivasiya A.N.Leontevning konseptual modelida faoliyat tuzilishida mavjud bo‘lgan o‘zaro bog‘liq komponentlar (ehtiyoj - motiv - maqsad, harakat - operasiya) tizimi sifatida e’tirof etilsa, S.G.Rubinshteyn nuqtai nazaricha motiv shaxs rivojlanishining ajralmas qismi bo‘lib, dunyoga, o‘z faoliyatiga hissiy va

qadriyat munosabatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ehtiyojlarni yuzaga chiqaradi deydi[37].

A.N.Leontlevning fikricha, inson ehtiyojlarining rivojlanish yo‘li sxema bo‘yicha rivojlanadi: birinchidan, inson o‘zining hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun harakat qiladi, so‘ngra harakat qilish uchun hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Insonni boshqaradigan ikki turdag'i ehtiyojlar mavjud: biologik va ijtimoiy, ularning paydo bo‘lishi ularni qondirishga olib keladigan faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq[37].

Tadqiqotchilar L.I.Bojovich, I.A.Zimnyaya va A.K.Markova nuqtai nazaricha o‘quv motivasiyasi o‘quv faoliyatiga kiritilgan motivasiyaning alohida turi sifatida qaraladi. O‘quv motivasiyasining rag‘batlantiruvchi tarkibiy qismlaridan biri, bu motivasion muhitni murakkab jarayonlarini ajralmas ko‘rinishlaridan biri sifatida tavsiflanadi[75;13;29].

A.G.Asmolov fikricha, o‘quv faoliyati polimerlanadi va ierarxiyani tashkil etuvchi murakkab motivlar tizimi tomonidan boshqariladi. Motivasiya tizimining quyidagi tarkibiy qismlari mavjud[4].

1) Ta’lim va kognitiv motivlar (yangi bilim va harakat usullarini ishlab chiqish va o‘zlashtirishga e’tibor berish);

2) Ijtimoiy motivlar:

a) ideallar va ijtimoiy qadriyatlarga e’tibor berish (A.K. Markova);

b) jamiyat oldidagi burch va javobgarlik motivi (M.V. Matyuxina);

v) mansublik motivlari - (ingliz tilidan affiliation - qo‘shilish) - boshqa odamlar bilan munosabatlar o‘rnatish yoki saqlab qolish istagi, ular bilan aloqa qilish va muloqot qilish istagi;

d) jamiyatda xavfsiz xulq-atvor turi motivlari;

e) o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash motivlari - o‘z-o‘zini rivojlantirish va bilim va malakalarni o‘zlashtirish usullarini doimiy ravishda takomillashtirishga yo‘naltirish (A.K. Markova, A.B. Orlova, L.F. Fridman);

3) tashqi motivlar:

a) moddiy mukofot motivi;

- b) xavfsizlik va barqarorlikka intilish motivi;
- v) nufuz va maqom motivlar;
- d) muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi.

4) Ichki motivlar. A.K.Markova, T.A.Matis, A.B.Orlovlar fikricha, inson o‘zining xulq-atvori va amalga oshirayotgan faoliyatidan qoniqish olganida vujudga keladi:

- a) o‘z avtonomiyasi yoki shaxsiy sabab-oqibat motivi;
- b) o‘z malakasining motivi va erkin tanlash imkoniyati.

E.N.Bogdanov, Z.I.Tyumaseva, N.P.Shcherbak protsessual va ishlab chiqarish motivlari va o‘z-o‘zini rivojlantirish motivini inson faoliyatining ichki motivlari deb hisoblashadi. B.D.Karvasarskiy motivning asosiy vazifalarini quyidagicha ifodalaydi.

- shaxsning faoliyati va xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan rag‘batlantiruvchi (yoki rag‘batlantiruvchi) funksiya;
- harakat strategiyasini tanlashga sabab bo‘ladigan, harakat energiyasining ma’lum bir ob’ektga yo‘nalishini aks ettiruvchi rahbarlik funksiyasi;
- xatti-harakatlarning tabiatini oldindan belgilab beruvchi tartibga solish funksiyasi[73].

Quyidagi tadqiqotchilar (L.I.Bojovich, I.A.Zimnyaya, A.N.Leontev, Ye.P.Ilin, S.L. Rubinshteyn, Ye.V.Sidorenko, X.Xekxauzen) motivlarni yo‘nalishi va mazmuniga ko‘ra tasniflaydilar:

- ijtimoiy (burch, mas’uliyat, ta’limning butun jamiyat uchun ahamiyatini tushunish);
- kognitiv (ko‘proq bilish istagi, bilimdon bo‘lish);
- professional qiymat (istiqbolli va qiziqarli ishni olish imkoniyatlarini kengaytirish);
- estetik (o‘rganish - zavq, odamning yashirin qobiliyatları va iste’dodlari ochiladi);
- kommunikativ (insonning intellektual darajasini oshirish va yangi tanishlar orttirish orqali ijtimoiy doirasini kengaytirish imkoniyati);


- maqom-pozitsion (jamiyatda o‘qitish yoki ijtimoiy faoliyat orqali intilish ma’qullanadi);
- an’anaviy-tarixiy (jamiyatda paydo bo‘lgan va vaqt o‘tishi bilan mustahkamlangan stereotiplar);
- utilitar-kognitiv (qiziqadigan alohida mavzuni o‘rganish va o‘z-o‘zini tarbiyalash istagi);
- ongsiz motivlar (qabul qilingan ma’lumotlarning ma’nosini to‘liq noto‘g‘ri tushunish va kognitiv jarayonga to‘liq qiziqish yo‘qligi asosida) [13;29;30;61].

Ushbu motivlarni yo‘nalishi va mazmuniga ko‘ra inklyuziv ta’lim jarayonida tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning hayot faoliyatida katta ahamiyat tutib, ularni ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan inklyuziv ta’lim muhitida imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar hayot xavfsizligini motivation rag‘batlantiruvchi faoliyatini rivojlantirish zaruriyati mavjud.

Inklyuziv ta’limdagi rag‘batlantiruvchi faoliyat - bu imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar xavfsizligini va jamiyatda ijtimoiy moslashuvini shakllantirishning maqsadli pedagogik jarayoni hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan Porter-Louerning protsessual motivlar toifasiga kiruvchi xususiyatlaridan kelib chiqib, biz uning asosiy tarkibiy qismlariga e’tibor qaratgan holda, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar uchun qo‘llash imkoniyatini tahlil etamiz.



**1-rasm. Imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni protsessual motivasiyasi**


Motivasiyaning ishlab chiqilgan modeliga ko‘ra, u besh komponentni aniqlaydi, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar tomonidan sarflangan sa'y-harakatlar, ularning idroklari, olingan natijalar, olgan bilimi va ulardan qoniqish darajasi. Shunday qilib, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar tomonidan qilingan o'quv jarayonidagi sa'y-harakatlarning darajasi, ularning rag'bat va bu harakatlar sifati, ham miqdori haqiqatdan kutilgan natijaga olib kelishiga ishonch darajasi bilan belgilanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, kerakli darajadagi ishlashga erishish ma'lum ichki mukofotlarga olib kelishi mumkin: bu o'ziga ishonchi, kuchli tomonlari va ma'lum bir sohadagi malakasi, o'zini o'zi qadrlashi, bajarilgan vazifalardan qoniqish hissi hosil bo'lishi mumkin va lavozimga ko'tarilish, ish haqini oshirish, bonuslar yoki rahbarlarning roziligi kabi tashqi mukofotlar.

Shuni ta'kidlash kerakki, adolat nazariyasi qoidalariga asoslanib, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar ma'lum natijalarga erishganliklari uchun oladigan rag'batningadolatliligiga, o'zlarining shaxsiy baholariga ega bo'lishlari mumkin. Bu yerda qoniqish, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning natijasi bo'lib, o'zлari uchun qanchalik davlat va jamiyatga kerak ekanliklarini his etadilar.

Shunday qilib, inklyuziv muhitda ta'lim olayotgan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning motivasiyasi shunchaki sabab-oqibat munosabatlari zanjirini elementi emas, balki o'zaro bog'liq tushunchalarni (qoniqish, mukofot, natijalar, qobiliyatlar, harakatlar va idrok) tizimga birlashtirish muhimligini ko'rsatkichidir.

Ushbu shartni amalga oshirish inklyuziv muhitda ta'lim olayotgan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning ehtiyojlari va qiziqishlari, intilishlari va histuyg'ulari, munosabati va ideallari, munosabatlarida motivlarni shakllantiradigan xavfsiz xulq-atvorni ular shaxsida rivojlantirish motivation yondashuvini taqozo etadi.



**2-rasm: Inklyuziv ta'lismuhitida o'quvchilarni xavfsiz hayotga yo'naltirish motivi**

Inklyuziv muhitda ta’lim olayotgan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar uchun motivasiyaning haqiqiy manbasi - bu shaxsiy xatti-harakatlarni xavfsiz turiga moslashuvini shakllantirishga yordam beradigan ichki motivlardir. Shu sababli, o‘rganish motivlariga (ichki rag‘batlantiruvchi kuchlar) hal qiluvchi ahamiyat berildi, ular inklyuziv tayyorgarlik jarayonida o‘z rivojlanishini, boshqalar bilan birgalikda va boshqalar uchun harakat qilishni, yangi, noma’lum narsalarni bilishni o‘z ichiga oladi.

Imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning xavfsiz hayotga tayyorgarligini shakllantirish uchun maqsadli inklyuziv faoliyatni shakllantirish tizimida ma’lumotlarni qayta ishlash va psixologik tartibga solishning barcha bosqichlarida o‘quv motivasiyasi jarayoni zaruriy sharti hisoblanib, maqsad, vazifalar va uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan natijaga erishish yo‘llarini belgilab beradi.

Motivasiya - bu imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning xavfsiz hayotga tayyorgarligini shakllantirishning murakkab va ko‘p bosqichli jarayoni bo‘lib, bu ularning jamiyatga moslashish darajasini belgilaydi, kundalik hayotda xavfsiz xatti-harakatlarning stereotiplari keng tarqaganligi bilan tavsiflanadi. Inklyuziv ta’lim jarayonida xavfli va favqulodda vaziyatlar, shuningdek, hayotning barcha sohalarida yuz beradigan tahdid va xavflardan himoyalanish mexanizmlariga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda mamlakatda va jahonda ro‘y berayotgan tub ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, globallashuv va integrasiya jarayonining tezlashishi, millatiga va insoniyatga yot bo‘lgan g‘oyalarni “eksporti” har bir insonning ijtimoiy hayoti sharoitlariga ta’sir ko‘rsatib, murakkablashtirmoqda, shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga, uning salomatligi, hayoti xavfsizligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-madaniy vaziyatni o‘zgartirmoqda. Bu jarayon jamiyatning barcha qatlamenti o‘z ta’siriga olish ehtimoli ortib borishi yuzasidan kelib chiqib, davlat siyosatida va ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadigan oqilona strategik qarorlar qabul qilishni taqozo etadi.

Imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni inklyuziv ta’limga yo‘naltirish va ularni xavfsiz hayotini ta’minlash, ijtimoiy faolligini oshirish, shaxsiy va kasbiy

rivojlanishini rag‘batlantirish, jamiyatda ijtimoiy reabilitasiya omillariga e’tiborni yanada kuchaytirish, hamda sog‘lom barqaror muhitini yaratish alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar P.V.Stankevich va Z.A. Xusnutdinova nuqtai nazaricha imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni inklyuziv ta’limga maksimal darajada yo‘naltirish bugungi kunning dolzarb muammosidir. Hozirgi zamonda ijtimoiy moslashuv darajasi va turli vaziyatlarini kuchayib borayotganligi yoshlarda deviant xulq-atvorini ortib borishiga olib kelmoqda[70;82].

Shu nuqtai nazardan inklyuziv ta’limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)lar va aholining boshqa kam harakatchan guruhlarida moslashish fazilatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir hissiyotlar, in’ikoslar, g‘oyalarni rivojlantirish, hamda atrofdagilar dunyoqarashini shakllantirish o‘quv jarayoni asosida ta’milanadi.

Bu imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning analistik va sintetik faoliyatini rag‘batlantiradi, dunyo tasviri bo‘yicha aqliy operasiyalarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)ning ongida mavjud bo‘lgan dunyo sur’ati va haqiqat o‘rtasida vositachi bo‘lib, fazoviy, vaqtinchalik va semantik komponentlarni o‘z ichiga oladi. Bu uning mavjudligini o‘ziga xos xususiyatlarini, dunyo bilan munosabatlarni ifodalaydi va imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larning ijtimoiy muhitda xavfsiz yashashini muhim sharti bo‘lib hisoblanadi.

Bu jarayon imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larda inklyuziya orqali xavfsiz yashash motivasiyasini o‘ziga xos asosiy xususiyatlarini rivojlantiradi, hamda ijtimoiylashtirishini rag‘batlantiradi. Ushbu rag‘batning ijtimoiy omillarini quyidagilar ta’minalaydi:

- inklyuziv ta’lim jarayonida singdirilayotgan ijtimoiy bilimlar (jamiyatdagi barcha odamlar bilan munosabatlari, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarga mansublik);

- inklyuziv ta’lim jarayonida amaliy faoliyat ko‘nikmalarini egallash (jamiyat bilan ijtimoiylashuv va sohaviy integrasiya);

- inklyuziv ta'lim jarayonida ijtimoiy xulq-atvorning muayyan me'yor va qadriyatlari, hamda rollarni o'zlashtirish;

- inklyuziv ta'lim jarayonida barchaga xos qadriyatlar tizimini anglash va faoliyatida namoyon etish.

Imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni o'qitishda atrof-muhitga yo'naltirilgan yondashuv o'qituvchi faoliyatidagi urg'uni o'quvchi shaxsiga faol pedagogik ta'sir ko'rsatishdan uning o'z-o'zini o'rganishi va o'z-o'zini rivojlantirishi amalga oshiriladigan inklyuziv ta'lim muhitini loyihalash sohasiga o'tkazishga imkon beradi. Shunday qilib, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim muhitini zamon talabiga muvofiq shakllantirish ularning ijtimoiylashtirishga yordam beradi. Inklyuziv muhitda uni o'rganish va amalga oshirish uchun bir qator tushunchalar va shartlar ilmiy jihatdan chuqur va har tomonlama tadqiq etilishi lozim.

Jamiyatda inklyuziv ta'lim muhitini amalga oshirishning eng muhim sharti ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini (imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar) shaxsiy rivojlantirish darajasini oshirish va ijtimoiylashtirishni ta'minlashdir. Bu jarayon imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larda o'z ko'nikma va qobiliyatlarining shaxsiy potensialini rivojlantirish va kundalik hayotda samarali mustaqil harakatlarga tayyorlash uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Tadqiqotchi A.I.Kaplanning fikriga ko'ra, inklyuziv ta'limga jalg etilgan imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larda ya'ni ko'rish qobiliyati zaif bolalarda fikrlash funksiyalari ko'r bolalarniki bilan bir xil, garchi ko'rlar hissiy idrok etish bilan bog'liq muammolarni boshdan kechirsalar ham, lekin cheklangan imkoniyatlarga qaramay, bu jarayonda ko'r va ko'rish qobiliyati zaiflarning tasavvuridan foydalanadi. Mana shu jarayon faoliyat kompensation funksiyani to'ldiradi[32].

Xulosa qilib aytganda imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar tafakkurini rivojlanishini inklyuziv ta'lim muhiti doirasida yuzaga chiqarish imkon mavjud. Ta'kidlash kerakki, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larning inklyuziv ta'lim

olishi, tarbiyalanishi va rivojlanishi jarayonida bevosita yoki bilvosita hayot xavfsizligi, hamda unga doir bilim va tushunchalarni elementini shakllantirib, kognitiv bilimga aylantirish ehtimolligi yuqoridir.

Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim muhitida imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni xavfsiz hayotga undash motivini rivojlantirishda xizmat qiladigan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik-psixologik omillarning manbalarini muvofiqlashtirish, hamda amaliyotga joriy etishni zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish ehtiyoji yuqoridir.

Shuningdek, inklyuziv ta’lim muhitida imkoniyati cheklangan bola (o‘quvchi)larni xavfsiz hayotga yo‘naltirishning ijtimoiy tarkibiy qismlari o‘rtasidagi mexanizmlar muvofiqligini ta’minalash zarur, hamda ularni xavfsiz hayotga undash motivini “to‘siksiz makon” konsepsiyasini ishlab chiqish va jamiyat hayotiga joriy etish orqali amalga oshirish lozim.

### **2.3. Nogiron o‘quvchilarining hayot faoliyati xavfsizligi kompetensiyasini amaliyotga yo‘naltirilgan faoliyatda shakllantirish metodikasi**

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarini amaliy faoliyatini tashkillashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ularni kasbiy tayyorlash va shaxsiy rivojlantirish jarayonida xavfsiz hayotga tayyorgarligini shakllantirishda (yoshi, jinsi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda) samarali ta’lim muhitini yaratish katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarini amaliy faoliyatga bo‘lgan motivini oshirish, rag‘batlantirish, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, kognitiv faoliyatning kamchiliklarini yumshatish, individual tipologik xususiyatlarini shakllantirish omil va manbalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish lozim.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun sog‘lom ta’lim muhitini yaratish, ma’lum soha va kasblarga tayyorlash uchun tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi. Mana shu masala ularni xavfsiz hayotga tayyorgarligini shakllantirishda muhim ijtimoiy zaruratdir.

Jamiyatimizda shakllanib borayotgan inklyuziv ta'limning o'quv-reabilitasiya muhiti tashkiliy, uslubiy va texnologik jihatdan imkoniyati cheklangan o'quvchilarni alohida ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lib, kasbiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, sog'lig'ini muhofaza qilish, mustaqil faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Bu dasturdan ko'zlangan maqsad inklyuziv ta'lim muassasasining axborot va ijtimoiy-madaniy makonini yanada mustahkamlaydi.

Ushbu muhit imkoniyati cheklangan o'quvchilarining hayotiy faoliyati cheklanganligini to'liq yoki qisman (kompensasiya) qoplashga qodir bo'lib, ularga mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar sifatida harakat qilish imkonini beradi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasbga o'rgatishda o'quv jarayonini quyidagilar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- shaxsning potensial qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish (jismoniy va aqliy qobiliyati buzilgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarni shaxsini rivojlantirishning umumiy qonuniyatları va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda);
- to'siqsiz o'quv muhitini shakllantirish (Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga tabaqlashtirilgan va individual yo'naltirilgan yondashuvlar);
- imkoniyati cheklangan o'quvchilar salomatligini muhofaza qilishni ta'minlash;
- terapevtik jismoniy tarbiya sohasida bo'lajak mutaxassislarni terapevtik-ko'ngilochar mashg'ulotlar va terapevtik mashqlar kompleksida (tibbiy, jismoniy va psixologik trening) muolajalari bilan uyg'unlikda nazariy va amaliy tayyorlash uchun sharoit yaratish;
- imkoniyati cheklangan o'quvchilarining kasbiy reabilitasiyasini rivojlantirishga ko'maklashish optimal metodlarini ishlab chiqish;
- imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ijtimoiylashgan muhitda (o'quv xonalarda, izolyatsiyalangan bandligini cheklash) o'zini o'zi band qilishini ta'minlash;

- imkoniyati cheklangan o‘quvchilar sinf xonalarini maxsus loyihalash, sanitariya-gigiena sharoitlarini yaratish, davolash va reabilitasiya ishlarini tashkil etish;
- imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun psixologik yordam, ijtimoiy-huquqiy maslahatlar, ishga joylashishda amaliy yordam berish, ta’lim jarayoni bilan bog‘liq ijtimoiy, maishiy va ijtimoiy-madaniy masalalarni hal etish;
- imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga va mehnat faoliyatiga moslashtirish, hamda o‘zini o‘zi anglash bo‘yicha pedagogik-psixologik ishlarni kuchaytirish.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni amaliy faoliyatga yo‘naltirish ixtisoslashtirilgan moddiy-texnik bazani yaratishni talab qiladi, jumladan, ko‘rish qobiliyati zaif talabalar uchun kasbiy fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari va ko‘rgazmali quollar (modellar, bo‘rttirma planshetlar va jadvallar), stendlar, texnik jihozlar bilan yaxshi jihozlangan o‘quv xonalarida o‘tkazilishi lozim. Ijtimoiy tarmoq bilan bog‘lanadigan moslamalar ham ularning kasallik xususiyatlariiga (shaxsiy kompyuterlar, ovoz yozish moslamalari, CD pleerlar) muvofiqlashgan bo‘lishi taqozo etiladi.

Shuningdek, har bir imkoniyati cheklangan o‘quvchi kasbiy va fanlararo sikllarning barcha manbalari maxsus individuallashtirilgan elektron nashrlar bilan ta’milanishi kerak. Ta’lim muassasaning kutubxona fondi barcha bosqichlar bo‘yicha asosiy va qo‘srimcha o‘quv adabiyotlari, shuningdek, rasmiy, ma’lumotnomma-bibliografik va davriy nashrlar bilan ta’milanishi juda muhim. Bunda imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun mahalliy, hududiy va mintaqaviy ta’lim muassasalari bilan tezkor ma’lumot almashish imkoniyati yaratiladi.

Inklyuziv ta’lim muammolarini hal qilishga qaratilgan o‘quv jarayoni imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning tayyorgarlik darajasi va kasbiy rivojlanish qobiliyatlari bilan bog‘liq muhim masalalarni amalga oshirishni maqsad etib belgilanganlik darajasi bilan ajralib turadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bugungi kunda jamiyatimizda inklyuziv ta’lim tizimini samarali amalga oshirish va imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni

kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘quv sikllarining asosiy va maxsus qismlarini zamonaviy, davlat va jamiyat ehtiyoji hamda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda o‘qitish maqsadga muvofiqdir.

Bunda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim deb o‘ylaymiz:

- tarix (ichki motivasiya beradigan va inson irodasini tarbiyalaydigan tarixiy shaxslar hayoti va ijodi bilan to‘ldirilishi lozim);

- ma’naviyat asoslari (inson qadrini eng oliv qadriyat deb tushunib, o‘zini o‘zi shaxs sifatida shakllantirishning anglangan faoliyatiga yo‘naltiriladigan omillarga muvofiqlashtirish);

- psixologiya (inson irodasi, unga xos bo‘lgan sifatlar, ongli faoliyat asoslari, motivasion trening va amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitilgan);

- jismoniy madaniyat (inson tanasini ongli ravishda tarbiyalab borish va rag‘batlantirish manbalari bilan to‘ldirilgan).

- hayot xavfsizligi (inson o‘zini o‘zi asrashni ijtimoiy-pedagogik va psixologik omillari bilan to‘ldirilgan);

- axborot xavfsizligi (informasion xuruj va tahdidlarni psixologik ta’siri, hamda ong va faoliyatga salbiy ta’sir yuzasidan negativ manbalarni bloklashga yo‘naltirilgan) bo‘lmog‘i lozim.

Shuningdek, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni amaliyot jarayonlarini tashkil etishda quyidagi masalalar ustuvor hisoblanadi:

- *birinchidan*, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyoti imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni kasbiy ko‘nikma va malakalarini to‘liq shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, amaliy kompetensiyalarni o‘zlashtirish uchun maxsus individuallashtirilgan zamonaviy innovasion texnologik jihozlar bilan ta’minlangan maktab laboratoriya hamda ishlab chiqarish tashkilotlarida o‘tkazilishi lozim;

- *ikkinchidan*, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish va amaliy kompetensiyalarini oshirishda PTIK doirasida ta’lim muassasa va hamkor tashkilot bilan ishlab chiqilgan muvofiqlashgan dastur asosida amalga oshirilishi taqqoslanadi;

-uchinchidan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni amaliyot jarayoni, sog‘lig‘i va ruhiy holatiga ta’sir o‘tkazmagan holda, jismoniy toliqish jihatlarini hisobga olib, “qulay vaqt” va “qulay makon” nuqtai nazaridan to‘siksiz harakat konsepsiysi mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi;

-to ‘rtinchidan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni salomatligini mustahkamlash va kasbiy motivasiya beradigan faoliyat turlariga xohish va istaklari, hamda qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib yo‘naltirilmog‘i lozim;

-beshinchidan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni amaliyot o‘tash tashkiloti, ularda malaka, bilim, amaliy tajriba va o‘zlashtirilgan kasbiy kompetensiyalarni baholash imkonini beradigan dastur va shart-sharoit bilan ta’minlanganligi;

-oltinchidan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning amaliyot jarayonini zaruriy tarkibiy qismi sifatida, chidamlilik, tanqidiy o‘zini o‘zi baholash va o‘zini o‘zi nazorat qilish, hamda faoliyatdagi muvaffaqiyatlari va kamchiliklariga to‘g‘ri baho berish kompetentligini shakllantirishi;

-yettinchidan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni amaliyot jarayonida boshqalar bilan sotsializasiya jarayonini ta’minalashga qaratilgan dasturlarning to‘liq amalda ishlashi, hamda jamoada adekvat xulq-atvor shakllantirish uchun sog‘lom ijtimoiy psixologik muhitni shakllanganligi.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar hayot faoliyati xavfsizligi kompetensiyasini amaliyotga yo‘naltirilgan faoliyatda shakllantirish metodikasini shakllantirish uchun “Hayot xavfsizligi” kursini maxsus fan sifatida o‘quv jarayoniga kiritish taqozo etiladi.

“Hayot xavfsizligi” kursida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini, ularni hayot faoliyati xavfsizligi sohasidagi individual imkoniyatlarini yangilash va boyitish imkonini beruvchi umumiylashtirish kasbiy fanlarni pedagogik-psixologik salohiyatini integrasiyalash va joriy etish hayot faoliyati haqida yaxlit idrok etishga yordam beradi. Shuningdek, o‘zini asrash va atrof muhitga anglangan faoliyat turi sifatida qarab, jamiyat bilan integrasiyasi

shakllanadi, hamda ijtimoiy moslashuv jarayoni anglangan faoliyat turiga ko‘chadi.

Shu nuqtai nazardan “Hayot xavfsizligi” fanini imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning hayot yo‘nalishi va faoliyat turi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini muvofiqlashtirgan holda, kasbiy va ijtimoiy moslashuv jihatlarini xavfsizlik xususiyatlari ishlab chiqilishi zarur.

Bunda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun “Hayot xavfsizligi” kursini zamonaviy ta’lim maqsadlariga erishish imkonini beradigan modelini nogironlik xususiyatlaridan kelib chiqib ta’lim tizimi mazmuniga singdirish;
- imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni kasbga tayyorlash jarayonida nogironlik xususiyatlaridan kelib chiqib maxsus o‘quv-uslubiy majmualarni joriy etish;
- imkoniyati cheklangan o‘quvchilar tahsil olayotgan barcha ta’lim muassasasida ular salomatligini saqlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida kasbiy tayyorgarlik sifatini zamon talabiga muvofiqlashtirish;
- imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning xavfsiz hayotga tayyorgarligini shakllantirishni samarali asosi sifatida, ular xulq-atvorida o‘zini o‘zi bloklash mexanizmini psixologik omillarini qaror toptirish;
- imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning xavfsiz hayotga tayyorgarlik darajasini mustaqil ravishda oshirish uchun, o‘ziga o‘zi motivasiya va rag‘bat berish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning xavfsiz hayotga tayyorgarligini shakllantirishda pedagogik jihatdan amalga oshiriladigan ishlar:

*-birinchidan*, hayot faoliyati xavfsizligi sohasida ilgari mavjud (asosiy) bilimlarni aniqlash;

*-ikkinchidan*, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda atrof-muhitni idrok etishning strukturaviy va funksional tizimlarini aniqlash, hamda o‘zgarishlarini tahlil etish;

-uchinchidan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar hayot xavfsizligini boshqarish va tashkil etishda kasbiy bilim sohasining rolini belgilash;

-to ‘rtinchidan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni hayot jarayonida salbiy omillardan himoya qilishning muayyan usullarini ishlab chiqish, hamda jamiyatda ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish;

-beshinchidan, xavfsiz xulq-atvor tushunchasini imkoniyati cheklangan o‘quvchilar shaxsida rivojlantirish;

-oltinchidan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni xavfsiz hayotga tayyorgarligini pedagogik-psixologik omillar asosida shakllantirish;

-yettinchidan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni shaxsiy xavfsizlik va sog‘lig‘ini saqlash masalalarini ustuvor ta’minlaydigan bilimlar manbasi bilan to‘yintirish.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar “Hayot xavfsizligi” fanini o‘zlashtirishi natijasida quyidagi kompetensiyalarni o‘zlashtirishlari va shaxsiy-amaliy faoliyatida qo‘llay olishlari lozim:

- iqtisodiy ob’ektlarning barqarorligini ta’minlash va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, hamda tabiat hodisalariga munosib yondashish;

- davlat va jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid sifatida qaraladigan informasion g‘oya va targ‘ibotlarga qarshi kurash kontekstida hodisalarining rivojlanishini prognozlash, hamda oqibatlarini baholash ko‘nikmasini qaror toptirish;

- shaxsiy va kasbiy faoliyatda yoki kundalik hayotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarning asosiy turlari va oqibatlarini anglash, hamda ehtimoliy ta’sirini kamaytirish;

- ish faoliyatida, hayot xavfsizligi qoidalariga amal qilish va targ‘ibot ishlarini olib borish;

- imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni favqulodda vaziyatlarning salbiy ta’siridan himoya qilish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

- imkoniyati cheklangan o‘quvchilar kasbiy faoliyatda va kundalik hayotda yuz berishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar darajasi va oqibatlarini kamaytirish yuzasidan profilaktika choralarini ko‘rish (targ‘ibot va tashviqot asosida).

Tadqiqotchi V.P.Ermakovning fikriga ko‘ra, shaxsda kompensasiya jarayonlari asta-sekin rivojlanish bosqichlarga ega bo‘lib, funksiyalari tizimli tuzilishining o‘ziga xosligi bilan tavsiflanadi[27].

Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo‘lsak inson ontogenezning turli bosqichlarida shakllanish jarayonlarini boshdan kechirib boradi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonida tabaqlashtirilgan yondashuvni qo‘llash, shaxsni rivojlantirishda aniqlangan kamchiliklarni qoplash yoki korreksiyalash imkonini beradi.

Ushbu ilmiy farazimizni tadqiqotchi B.K.Tuponogovning fikri bilan asoslash mumkin. Uning nuqtai nazaricha tabaqlashtirilgan mashg‘ulotlar tufayli imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda idrok, fikrlash, xotira, nutq faollashuvi, reproduktiv faoliyatni to‘liqligi, tushunchalarni adekvatligi, tevarak-atrofdagi olamni bilish jarayonlari takomillashadi[72].

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib "Hayot xavfsizligi" kursining imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni kasbiy fanlar bilan integrasiyalashuvi ularning ijtimoiy moslashuvini zarur shartidir degan ilmiy farazni ilgari suramiz.

Tadqiqotchi Ye.O.Galiskix fikricha, integrasiya zamonaviy tizimli tafakkurning umumiy metodologiyasi, universal mantiqiy usullariga asoslangan turli tizimlardan olingan ilmiy bilimlarni mos kelishini ta’minlaydi[20].

